

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**BYUDJET HISOBI VA DAVLAT JAMG‘ARMALARI FAKULTETI**

**“PENSIYA ISHI” KAFEDRASI**

**UMARJONOV JASURJON NOMOZBOY O‘G‘LI**

**“IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA  
DAVLAT PENSIYA TA‘MINOTINING MOHIYATI VA  
ZARURLIGI”**

5231300 – “Pensiya ishi” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”**

**Fakultet dekani**

\_\_\_\_\_ i.f.n., dots. O.Komolov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 y.

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”**

**“Pensiya ishi” kafedra mudiri**

\_\_\_\_\_ i.f.n. B.Mamatov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 y.

**Bitiruvchi:** 5231300 -“Pensiya ishi”-ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Umarjonov Jasurjon Nomozboy o‘g‘li

\_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:**

\_\_\_\_\_ k.o‘q.D.Sholdarov

**TOSHKENT – 2018**

	<b>bet</b>
<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>1-BOB DAVLAT PENSIYA TA'MINOTINING IJTIMOIIY– IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI.....</b>	<b>8</b>
1.1 Davlat pensiya ta'minotining ahamiyati va zarurligi.....	8
1.2 Davlat pensiya ta'minoti tizimining qonuniy-huquqiy asoslari.....	13
1-bob bo'yicha xulosa.....	20
<b>2-BOB DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING DAROMAD VA XARAJATLARI HOLATI TAHLILI.</b>	<b>21</b>
2.1. Pensiya jamg'armasi daromadlarining pensiya ta'minoti moliyaviy barqarorligini oshirishdagi faoliyatini tahlili...	21
2.2. Davlat pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy mablag'laridan foydalanish amaliyoti tahlili.....	26
2.3. Davlat pensiya ta'minoti tizimida pensiya va nafaqalar tayinlash va to'lanishining amaldagi holati tahlili.....	42
2-bob bo'yicha xulosa.....	46
<b>3-BOB O'ZBEKISTONDA DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI</b>	<b>47</b>
3.1. Rivojlangan davlatlarning pensiya ta'minoti sohasidagi ilg'or tajribalarini O'zbekistonda qo'llash istiqbollari.....	47
3.2. Mamlakatimizda milliy pensiya tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari .....	55
3 - bob bo'yicha xulosa.....	63
<b>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</b>	<b>65</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>68</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Ma'lumki, 2017-yil 7-fevralda mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" to'rtinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, bu yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim myassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi<sup>1</sup>.

Bugungi kunda O'zbekiston jadal rivojlanmoqda. Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz. Jamiyatimizda siyosiy faollik ortib bormoqda, barcha sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan ko'zlangan maqsad – "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishdan iborat<sup>2</sup>.

Pensiya ta'minotining to'g'ri tashkil etilishi ham muayyan guruhga mansub ko'plab odamlarning, ham aholining daromadi, mehnati, turmush sifati hamda darajasini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy siyosat maqsadlariga erishish

---

<sup>3</sup> 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqi.

imkonini beradi. Pensiya tizimi – bu ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordamning bir ko‘rinishidir. “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida” gi Qonunning o‘ziga bir qancha o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilayotganligi, aytish mumkinki, pensiya ta‘minoti tashkiliy tizimini yanada takomillashtirish imkonini beradi. Pensiya qonunchiligi Pensiya jamg‘armasi tomonidan pensiya va ijtimoiy nafaqalarni o‘z vaqtida, to‘liq miqdorda moliyalashtirish, to‘lovlar ustidan monitoringni yuritish, pensiya ta‘minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘larning maqsadliligi va nazoratini kuchaytirish borasidagi vazifalarni taribga solib turadi.

Pensiya jamg‘armasining mablag‘larini shakllantirish va ulardan samarali foydalanish, qonunchiligini takomillashtirish masalalari bugungi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi. O‘zbekiston dunyo aholisi muayyam o‘svuchi davlatlar qatoriga kiradi. Respublika aholisining tarkibida yoshlar katta qismini egallashiga qaramasdan, keksalar soni bir tempda saqlanib qolmoqda. Mustaqillik yillarida aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi yanada yaxshilanib, o‘shish tendentsiyaga ega bo‘lmoqda. O‘zbekistonda pensiya ta‘minoti aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biri, sababi u deyarli hamma fuqarolarning umrlik huquqlari bilan bog‘liq ekan, fuqarolar mehnat qobiliyatini yo‘qotganda shu tizim orqali ijtimoiy himoyalanaadi.

“Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili” deb nom berilgan 2017-yilda ham davlat byudjetining qariyb 59,6 foizi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilishi, uning aksariyat qismi sog‘liqni saqlash, ta‘lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat tarmoqlarini yuksaltirishga qaratilgani aholi turmush farovonligini oshirish masalasi davlatimizning doimiy diqqat markazida ekanligining isbotidir.

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalish ko‘zda tutilgan. Ushbu yo‘nalish, jumladan fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash aholining muhtoj qatlamlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-

qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish"<sup>3</sup> chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 29-dekabr kuni "O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'grisida"gi farmon va "Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorni imzoladi.

Bu farmon va qarorga asosan O'zbekistonda keksalar va pensionerlar uchun mo'ljallangan 12 ta Saxovat va muruvvat internat uylari moddiy-tehnika bazalari 14,6 ming yolg'iz keksalar, pensionerlar, nogironlarning turar joy sharoitlar yaxshilandi, 5,4 ming odam rehabilitatsiya texnika vositalari va protez ortopediya mahsulatlari bilan ta'minlandi, 6,4 ming nogiron va pensioner sanatoriyalarda sog'liklarini tiklashdi. Ko'rsatilgan tibbiy-ijtimoiy yordamning umumiy hajmi 132,2 mlrd so'mni tashkil etdi.<sup>4</sup>

Shu bilan birga "Nuroniy" jamg'armasi davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi, yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, uning manzilliligini ta'minlash, keksa yoshdagilar, imkoniyati cheklangan odamlar va yolg'iz keksalarga ko'rsatiladigan tibbiy ijtimoiy yordam darajasi va sifatini ko'tarishni, shuningdek joylarda tuman va shaharlar aholisining zamonaviy diagnostika va davolanish uslublaridan foydalanish imkonlarini ta'minlaydigan tubdan yangi yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 2-fevraldagi "Ish haqi, pensiya, nafaqa, va stipendiyalarni to'lash mexanizmini

---

1 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF- 4947-sonli Farmoniga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil., 6-son. 70-modda.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda "O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4906-son Farmoni.

takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorida pensionerlar, talabalar, va aholining boshqa ehtiyojmand qatlamlari huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli va samarali himoya qilish, ular O'zbekiston Respublikasining barcha hududida xarid qiladigan tovar va xizmatlar uchun to'lovlarini to'siqlarsiz amalga oshirishi uchun qulay sharoitlar yaratishga qat'iy choralar belgilangan.

Bu qarorlarning qabul qilinishi esa mamlakatimizda ijtimoiy yordamga muhtoj aholi qatlamlariga va pensionerlarga ko'rsatilayotgan e'tiborni nechog'lik yuqori darajada ekanligini bildiradi. Bizning xalqimiz qadim tarixdan qariyalarga e'tabor juda yuqori bo'lgan va xalqimizning qon qoniga singib ketgan buyuk qadriyatdir.

**Tadqiqot predmeti.** Davlat pensiya ta'minotini mohiyati va zarurligini ilmiy tomondan o'rganish hisoblanadi.

**Tadqiqot obyekti.** O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Pop tumani bo'limi tanlandi.

**Maqsadi va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining maqsadi- davlat pensiya ta'minotini mohiyati, zarurligi va tashkiliy tuzilmasini, qonuniy huquqiy asoslarini, davlat pensiya ta'minoti tizimini daromad va xarajatlarini tahlil qilib xulosa va takliflar berishdan iborat. Muallif tomonidan qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish belgilangan.

- Davlat pensiya ta'minotining ahamiyati va zarurligini o'rganish;
- Davlat pensiya ta'minoti tizimining qonuniy-huquqiy asoslari o'rganish;
- Pensiya jamg'armasi daromadlarining pensiya ta'minoti moliyaviy barqarorligini oshirishdagi o'rni va faoliyatining tahlilini o'rganish;
- Davlat pensiya ta'minoti tizimida pensiya va nafaqalar tayinlash jarayoni tartibini o'rganish;
- Rivojlangan davlatlarning pensiya ta'minoti sohasidagi ilg'or tajribalarini O'zbekistonda qo'llash istiqbollari o'rganish;
- Davlat pensiya ta'minotini istiqbolli rivojlantirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

**Mavzuning nazariy-amaliy ahamiyati.** Ishning amaliy ahamiyati, muallif tomonidan ishlab chiqilgan nazariy xulosalarning va uslubiy tavsiyalarning mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan pensiya ta'minoti tizimini mohiyati, zarurligi va jamg'armalardan foydalanishning samaradorligini oshirishda bo'ladi. Ilmiy xulosa va amaliy takliflardan mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish bo'yicha yo'riqnoma, me'yoriy, hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi.** Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Shuningdek, tadqiqot ishi 74 betdan iborat bo'lib, unda 5 ta rasm hamda 7 ta jadval keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, nazariy-amaliy ahamiyati hamda bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi ko'rsatilgan.

Ishning birinchi bobida davlat pensiya ta'minotining ijtimoiy– iqtisodiy mohiyati va ahamiyati o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ikkinchi bobida davlat pensiya ta'minoti tizimining daromad va xarajatlari holati tahlili keltirilgan.

Ishning uchinchi bobida O'zbekistonda davlat pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish istiqbollari tadqiq etilgan.

Bitiruv-malakaviy ishining xulosa va takliflar qismida olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari yuzasidan shakllantirilgan xulosalar hamda ishlab chiqilgan amaliy taklif va tavsiyalarning qisqacha mazmuni o'z ifodasini topgan.

## **1-BOB. DAVLAT PENSIYA TA'MINOTINING IJTIMOIIY– IQTISODIY MOHIYATI VA AHAMIYATI**

### **1.1. Davlat pensiya ta'minotining ahamiyati va zarurligi**

Ijtimoiy sohani rivojlantirish 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining muhim bir yo'nalishi sifatida qabul qilinishi mazkur soha taraqqiyotini ta'minlash masalasining dolzarbligini ifodalaydi.<sup>5</sup>

Ijtimoiy ta'minot doimo davlat va jamiyat hayotida markaziy va hal qiluvchi o'rinni egallab kelgan. Mamlakatda yashaydigan fuqarolarda o'z hayot faoliyatining ma'lum bosqichlarida va alohida holatlarida ijtimoiy ta'minot tizimi xizmatlariga ehtiyojlari yuzaga keladi. Uning holati mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasiga mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatga shuningdek, mehnatkashlarning hamda ma'lum sabablarga ko'ra ishlamaydigan aholi qatlamlarining ijtimoiy ahvoriga bog'liq.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, turli markazlashgan va markazlashmagan jamg'armalar, avvalo, umumdavlat pul mablag'lari jamg'armasi davlat byudjetini tuzish va ijro qilish yo'li bilan ta'minlanadi. Mustaqillik yillarida murakkab iqtisodiy ahvol yuzaga kelganiga qaramay, O'zbekistonda aholi uchun eng muhim ijtimoiy vazifalarni hal etish maqsadida zarur mablag'lar izlab topildi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida O'zbekistonda faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda yangicha amaliy va samarali shakllarni qo'llashni taqozo etadi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, pensiya tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish va undan samarali foydalanish boshqa daromad hisobga olingan holatda ijtimoiy muammolarni hal qilish va kishilarni keksalikda kambag'allikdan himoyalashning

---

<sup>5</sup> 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y.



muhim vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy ta'minot sifatida davlat pensiya ta'minoti muhim o'rin tutadi.

“Ijtimoiy himoya” va “ijtimoiy ta'minot” bir ma'noli tushuncha emas, balki turdosh tushunchalardir.<sup>6</sup> Ulardan ilmiy ta'riflar sifatida foydalanilganda, “ijtimoiy himoya” “ijtimoiy ta'minot”ni tarkibiy qismi sifatida o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ijtimoiy himoya inson faoliyatining normal shart-sharoitlarini ta'minlovchi mehnat, sog'liq va tabiat, atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori kabi kafolatlarni qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasida aholining yuqori turmush darajasini ta'minlash va kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish vazifasi bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi, bunda pensiya tizimi muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda pensiya ta'minoti bu mamlakatimizda fuqarolarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kafolatlanlangan moddiy ta'minotni taqdim etish maqsadida tashkil etilayotgan huquqiy – tashkiliy institutlar va normalar majmuidir. Shu bois pensiya ta'minoti mamlakatimizda shakllangan ijtimoiy muhofaza tizimining fuqarolarning turmush darajasi va farovonligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, tashkil xususiyatiga ega kompleks chora- tadbirlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.


O'zbekiston Respublikasi fuqarolari “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi<sup>7</sup> qonunda belgilangan tartibda davlat tomonidan pensiya bilan ta'minlanish huquqiga egadir. Pensiya qonunchiligiga muvofiq, pensiya – shaxslarga pensiya yoshiga yetishi, nogironlik yoki boquvchisini yo'qotganligi munosabati bilan beriladigan oylik pul to'lovi bo'lib, uni olish huquqi qonunda belgilangan shartlar va me'yorlarga muvofiq aniqlanadi. Pensiya ta'minoti tizimini isloh etishning asosiy sababi, davlatning pensiyaga oid majburiyatlarini bajarish uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligidir va bu muammo aholining keksayib

---

<sup>6</sup> Xaitov A., Ziyadulaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi. O'quv qo'llanma. – T.: “Adolat”. 2009. -B.108.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 30-sonli Qarori.

borishiga muvofiq kuchayib, murakkablashib boradi va mamlakatlarda vujudga kelgan iqtisodiy, ijtimoiy va demografik vaziyatlardan kelib chiqqan holda ahamiyat kasb etadi.



### **1-rasm. Pensiya ta`minoti tizimining muhim maqsadi<sup>8</sup>**

Pensiya tizimi ta`minot asosida shakllantiriladigan va aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish va konstitutsion huquqlarini amalga oshirish uchun yo`naltiriladigan pul mablag`lari jamg`armasidan foydalanishga asoslanadi. Pensiya tizimiga xizmat qiluvchi pensiya jamg`armalari uchun daromad manbalarining aniq belgilanganligi, mablag`larning qat`iy maqsadli ishlatilishi, aholi ijtimoiy tabaqalashuvini yumshatishga yo`naltirilganligi, mablag`larning shakllanishi va ishlatilish muddatlarining mos kelmasligi, mustaqil moliya-kredit tashkiloti va byudjetdan tashqari maqsadli jamg`arma ekanligi hamda ijtimoiy ta`minotning muhim elementi ekanligi kabi xususiyatlar xosdir<sup>9</sup>.

<sup>8</sup> Xaitov A., Ziyadulaev M. O`zbekistonda pensiya ta`minoti va xorijiy tajribasi. O`quv qo`llanma. – T.: “Adolat”. 2009. -B.108.

<sup>9</sup> Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta`minoti. O`zuv qo`llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 248 b.

Pensiya ta'minoti aholini ijtimoiy himoyalash tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biridir, chunki u deyarli barcha fuqarolarning hayotiy manfaatlari bilan bog'liqdirki, fuqarolar mehnat qobiliyatlarini yo'qotganlarida shu tizim orqali ijtimoiy himoya qilinadilar.

Pensiya bilan ta'minlash dasturini ishlab chiqishda siyosatning eng asosiy masalasi pul mablag'larini jamg'arish vazifalari bilan, daromadlarni qayta taqsimlash vazifalari bilan, shuningdek ularning har birini amalga oshirishda davlatning roli bilan bog'liq. O'z navbatida bularni amalga oshirish uchun moliyaviy iqtisodiy barqarorlik, jamg'arma institutlarini tashkil qilishni o'z ichiga olgan fond bozorlarining rivojlanishi va unga muvofiq keluvchi qonunchilik asoslarini yaratish, aholi jamg'armalarini rag'batlantiruvchi samarali soliq siyosatini yuritish, aholining moliyaviy muassasalarga bo'lgan ishonchini ta'minlovchi davlat boshqaruv tizimi zarur.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Pensiya jamg'armasining barqarorligi ta'minlanmoqda, uning daromadlari bilan jamg'armadan amalga oshirilayotgan to'lovlar to'lig'icha moliyalashtirilmoqda. Lekin jamg'armaning davlat byudjeti tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligini ham alohida qayd etish lozim.

Turli mamlakatlar milliy pensiya tizimlarining shakllanishida quyidagi ikki yondashuv asos bolib hizmat qiladi: birinchi yondashuvga ko'ra, pensiya tizimiga tortilgan barcha fuqarolar uchun pensiya daromadining minimal hajmi kafolatlansa, ikkinchi yondashuv bo'yicha – pensiya ish haqining zahiralanuvchi qismi bo'lib sug'urtalangan xodimga uning pensiyaga chiqish oldidagi daromadiga monand moddiy ta'minotga ega bo'lishini kafolatlaydi.

Pensiya ta'minotining rivojlanishi jarayonida har ikkala maqsad uyg'unlashib ketdi, universal pensiya tizimlari sug'urtaviy tizimlar bilan to'ldirildi, sug'urtaviy tizimlar esa minimal kafolatlarni o'z ichiga ola boshladi. Shunday qilib, pensiyalarning ikkiyoqlama tabiati nafaqat umummaqbul qilindi, balki deyarli barcha rivojlangan pensiya tizimlarining shakllanishiga asos bo'lib hizmat qildi.

Pensiyalarning ikkiyoqlama yozuvi shundan iborat bo'ladiki, birinchidan, pensiya fuqarolarni kambag'allikdan himoyalab, ular daromadlarining minimal darajasini kafolatlasa, ikkinchi tomondan, ma'lum belgilangan sug'urta holatlari yuzaga kelganda ish haqining o'rnini bosadi, ya'ni yo'qotilgan daromadni yoki uning ko'p qismini kompensatsiyalaydi.

Har bir mamlakatda u yoki bu pensiya modeli asosida milliy pensiya tizimlari shakllangan bo'ladi. Pensiya tizimining modeli uning moliyaviy jihatdan tashkil etilishini hamda mamlakat fuqarolarini qarilikda moddiy jihatdan ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni ifodalaydi<sup>10</sup>.

Umuman olganda, mamlakatda aholining pensiya ta'minoti darajasi ustuvor ravishda ikkita omilga bog'liq: ijtimoiy himoya tizimining qay darajada rivojlanganligi va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi. Har ikkala omil, shuningdek, pensiya ta'minoti darajasi ta'minoti darajasi mamlakatdagi tarixiy, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi.

Milliy pensiya tizimlarini tashkil etishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- aholini maksimal darajada pensiya tizimiga qamrab olish;
- pensiya yukini (og'irligini) pensiya tizimi subyektlari-ish beruvchilar va ishlovchilar o'rtasida adolatli taqsimlash;
- barcha sug'urtalanuvchilarni qarilikda yoki nogironlikda o'z xohishi bilan yoki majburan pensiyaga chiqishi natijasida yo'qotayotgan daromadining katta qismini qoplash orqali mablag' bilan ta'minlash;
- talab qilingan yetarli mehnat stajiga ega bo'lmagan fuqaro toifalarini, shuningdek boquvchisini yo'qotgan fuqarolarni kambag'allikdan ijtimoiy himoya qilish;
- inflatsiya, ish haqilarining oshishi va hayot sifatining ko'tarilishi kabi omillarni hisobga olgan holda pensiyalarni indeksatsiya qilish.

---

<sup>10</sup> Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. Auerbach Publications. USA, 2008. P.85

Pensiya ta'minoti milliy g'oyani aks ettiradi hamda milliy iqtisodiy siyosat markazida turadi. Oxirgi o'n yilliklar mobaynida ko'p mamlakatlar o'zlarining amaldagi pensiya tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sharoitlarining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan isloh qilish zarurati bilan to'qnash kelmoqda.

Bugungi kunga kelib pensiya ta'minoti har qanday demokratik davlatda yashovchi insonlarning ajralmas huquqi hisoblanadi. Ammo turli davlatlar pensiya tizimlari bir-biridan o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasida pensiya islohotlarini olib borishda xorijiy tajribani har tomonlama o'rganish, jahon mamlakatlarida aholining ijtimoiy himoyasiga xizmat qiladigan, keksaygan paytida fuqarolarga munosib turmush sharoitlarini ta'minlaydigan, shu bilan birga, bozor sharoitlariga mos bo'lgan, fuqarolarning o'z farovonligini ta'minlashdagi ma'suliyatini oshirishga xizmat qiladigan mukammal pensiya ta'minoti tizimini shakllantirish va uning iqtisodiy-moliyaviy asoslarini mustahkamlash masalalari bugungi kunda mamlakatimizda pensiya tizimida olib borilayotgan islohotlarning diqqat markazidagi dolzarb masalalari qatorida bo'lishi lozim<sup>11</sup>.

## **1.2 Davlat pensiya ta'minoti tizimining qonuniy-huquqiy asoslari**

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab berilgan eng muhim huquqi – pensiya ta'minoti huquqi bilan mustahkam bog'liq. Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga ularning o'zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2000-yil 15-noyabr kuni "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini qabul qildi. Unga binoan O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi qoshidagi Pensiya jamg'armasi 2001-yil 1-yanvardan O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga

---

<sup>11</sup> Kasimova G.A., Botirov A.A. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. «TAMADDUN». T., 2015. 118 b.

qaytadan tashkil etildi. Ushbu vaqtdan boshlab Pensiya jamg'armasining mablag'larning to'liq to'planishi va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga kelib tushishi bo'yicha nazorat vazifalari O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasiga, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqarish, nafaqa to'lovlarining tushum va harajatlarining yillik va chorak pragnoz balanslarini shakllantirish, aholiga nafaqa va to'lovlarni o'z vaqtida hisoblash va amlaga oshirish esa qaytadan tashkil etilga Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vaziri O'zbekiston Respublikasi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'larini bosh boshqaruvchisi, ushbu vazirlikning joylardagi hududiy idoralarining rahbarlari esa Pensiya jamg'armasining hududiy bo'limlarining mablag'larining boshqaruvchisiga ega bo'ldilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-oktabrdagi "Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari tog'risida" gi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuriga o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2004-yilda qabul qilingan "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni muhim hisoblanadi unga ko'ra, 2005- yildan boshlab O'zbekistonda amaldagi davlat pensiya ta'minoti tizimiga qo'shimcha ravishda jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti ham kiritilgan shuni qayd etish lozimki, davlat va jamg'arma pensiya tizimlari bir birini to'ldirib bormoqda<sup>12</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2009-yil 30 –dekabrdagi "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmonida Pensiya jamg'armasi tomonidan pensiya va ijtimoiy nafaqalarni o'z vaqtida, to'liq miqdorda moliyalashtirish, to'lovlar

---

<sup>12</sup> Allayarov Sh.A., Toshmuxamedova D.A. Davlat pensiya ta'minoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2015. – 47 b.

ustidan mablag'larning maqsadliligi va nazoratini kuchaytirish borasida bir qator vazifalar belgilab berildi.

Bundan tashqari 2010-yildan boshlab, pensiya va nafaqalarni tayinlash, to'lovini monitoring qilish, hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida yangidan tashkil etilgan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshirilmoqda. Mazkur jamg'arma- uning Ijro etuvchi apparati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida 14 ta hududiy boshqarmasi hamda 196 ta tuma (shahar) bo'limidan iborat tashkiliy tuzilmaga ega. Bu tizimda hozirgi kunda 5 mingdan ortiq kishi mehnat qiladi.

O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda pensiya ta'minotining yangi tizimi paydo bo'ldi. Pensiya ta'minoti tizimining huquqiy asosini yaratilishida xukumatimiz tomonidan qator qonun va boshqa me'yoriy xujjatlar qabul qilindi.


Bizga ma'lumki har bir tizimni taribga solish uchun qonuniy-me'yoriy asoslari boladi. Xususan davlat pensiya ta'minotining ham bir qancha huquqiy asoslari mavjud Jumladan:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi Qonuni- 1993-yil 3-sentabr;
- O'zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida”gi 595-sonli qarori 2004-yil 2-dekabr
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi “Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 30-sonli qarori 2010-yil 19-fevral;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi 252-sonli qarori 2011-yil 8-sentabr;

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining “Pensiya ishlarini rasmiylashtirish va yuritish tartibi hamda pensiya hujjatlarining shakllari va ularni to‘ldirish qoidalari to‘g‘risida” gi 63-sonli buyrug‘i 2011-yil 14-oktabr;

– O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va Moliya vazirligining “Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar, va ko‘rsatkichlar ro‘yxatlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida” 2-Q, 5-sonli 2012 - yil 12- mart;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining har yilgi “ Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalarni oshirish to‘g‘risida”gi Farmonlari.



**2-rasm. Davlat pensiyasining turlari<sup>13</sup>**

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonuni O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta‘minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro‘yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta

<sup>13</sup> “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonuni 1993-yil 3-sentabr 2-moddasi asosida muallif tomonidan tuzildi.



hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi. Respublika hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta'minlash davlatlararo bitimlar (shartnomalar) asosida amalga oshiriladi. Ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolar va ularning oilalari ushbu Qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar. Ularning ijtimoiy ta'minlanish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo'yadi.

Umuman olganda, ushbu pensiya turlarini bir necha turini olish imkoniyati paydo bo'lganda faqat bittasini olish mumkin.

Harbiy xizmatchilarni, shuningdek ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslarni hamda ularning oila a'zolarini pensiya bilan ta'minlash shartlari, normalari va tartibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlaribilan belgilanadi,ularga qonunda nazarda tutilgan asoslarda pensiyalar olish huquqi ham beriladi. Bunda harbiy xizmatchilar, shuningdek ichki ishlar organlari boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslar pul ta'minotining barcha turlari fuqaro shaxslarning ish haqi singari bir xilda hisobga olinadi<sup>14</sup>.

Fuqarolar yoshga doir pensiya olish huquqiga:


– erkaklar – 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;

– ayollar – 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga urush nogironlari, bolalikdan nogiron farzandlarning onalari, liliputlar va pakanalar ham ega. Nogironlik pensiyalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Sog'lig'ini yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi. Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi.

---

<sup>14</sup> B.S.Mamatov. Pensiya jamg'armasi faoliyati. O'quv qo'llanma.-T.: "Barkamol fayz media", 2017,280 b.



**3-rasm. Pensiya miqdori tarkib<sup>15</sup>.**

Pensiyalarning quyidagi tayanch miqdorlari belgilanadi:

a) yoshga doir pensiya uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan oʻrtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin rasmiy belgilangan eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;

b) I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan oʻrtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;

g) oilaning mehnatga layoqatsiz har bir aʼzosiga boquvchisini yoʻqotganlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan oʻrtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50 foizi miqdorida;

d) ota-onasidan judo boʻlgan (chin etim) bolalarga yoki vafot etgan yolgʻiz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yoʻqotganlik pensiyasi uchun – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan oʻrtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida tayinlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiyalari toʻgʻrisida”gi Qonuni Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini toʻliq yoki qisman yoʻqotganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy

<sup>15</sup> Xaitov A., Ziyadulaev M. Oʻzbekistonda pensiya taʼminoti va xorijiy tajribasi. Oʻquv qoʻllanma. – T.: “Adolat”. 2009. -B.108.

ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgilaydi. Respublika hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta'minlash davlatlararo bitimlar (shartnomalar) asosida amalga oshiriladi. Ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolar va ularning oilalari ushbu Qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar. Ularning ijtimoiy ta'minlanish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab qo'yadi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratiladigan mablag'lar va badallar miqdorlari hamda ularni to'lash muddatlari O'zbekiston Respublika jamg'armasiga majburiy to'lovlar davlat soliqlari va yig'imlariga tenglashtiriladi.

Pensioner va nogironlarning turmush darajasi va hayot tarzi sifatini yanada oshirish hamda ijtimoiy muhofazasini mustahkamlash, davlat pensiya tizimini baarqaror rivojlantirish, maqbul ijtimoiy muhitni shakllantirish yo'li bilan fuqarolarni kafolatlangan davlat pensiyalari bilan ta'minlash hamda bu borada joylardagi shart-sharoitlarni yaxshilash yuzasidan Kompleks chora tadbirlar ishlab chiqildi va mazkur dastur o'rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasida tasdiqlandi. Pensiya jamg'armasi faoliyatini samaradorligini oshirish uchun unga biriktirilgan daromad turlarini ko'paytirish va o'z vaqtida shakllantirilishi pensioner va nogironlarning turmush darajasi va hayot tarzi sifatini oshirishga, pensiya jamg'armasi vazifasini o'z vaqtida bajarishga va pensiya tizimining barqarorligini ta'minlashga muhim omil bo'lib hisoblanadi<sup>16</sup>.

Umuman olganda biz yuqorida mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimini shakllantirilishining hamda uning huquqiy-me'yoriy bazasini yaratilishini uzviy bog'liqlikda bosqichma-bosqich amalga oshirilganligini asoslab yoritib berishga xarakter qildik. Shunday qilib, O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimini va uning Buning natijasida respublikamizda axolini ijtimoiy himoya qilishning asosiy

---

<sup>16</sup> B.S.Mamatov. Pensiya jamg'armasi faoliyati. O'quv qo'llanma.-T.: "Barkamol fayz media", 2017,280 b.

bo'g'ini bo'lgan mukammal pensiya ta'minoti tizimi yaratildi va hozirgi kunda ham uni takomillashtirish yuzasidan uzluksiz ishlar olib borilmoqda.

### **1-bob bo'yicha xulosa**

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning kuchli tomonlaridan biri uning ijtimoiy yo'naltirilganligidir. Xukumatimiz Respublikamiz mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq islohatlarning aholini xususan, uning ehtiyojmand qismini ijtimoiy muhofaza qilish asosida amalga oshira boshladi va shu yo'ldan bormoqda.

Davlat pensiya ta'minotining qonuniy-huquqiy asoslariga bugungi kunda bir qancha o'zgartirishlar kiritildi. Pensioner va nafaqa oluvchilarga qulayliklar yaratib berildi. Bizga ma'lumki ijtimoiy ta'minotning eng asosiy bo'g'ini pensiya ta'minoti hisoblanadi. Bugungi kunga kelib pensiya ta'minoti har qanday demokratik davlatda yashovchi insonlarning ajralmas huquqi hisoblanadi. Ammo turli davlatlar pensiya tizimlari bir-biridan o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyati yaxshi yo'lga quyilgan deb ayta olamiz. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparati jamg'arma faoliyatini boshqarishda nazorat funksiyasini to'liqligicha amalga oshirmoqda.

Umuman olganda, xulosa qilib aytishimiz mumkinki, davlat pensiya ta'minotining rivojlanish bosqichlari va bugungi hayotimizda tutgan o'rni, pensiya ta'minotining qonuniy-huquqiy asoslari, pensiya tizimini yanada rivojlanib pensionerlar va jamg'arma faoliyati uchun yanada qulayliklarni yaratib beradi.

## **2-BOB. DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING DAROMAD VA XARAJATLARI HOLATI TAHLILI**

### **2.1. Pensiya jamg'armasi daromadlarining pensiya ta'minoti moliyaviy barqarorligini oshirishdagi faoliyatini tahlili**

Pensiya tizimi mukammal darajada ishlashi uning qonuniy-huquqiy asosini to'g'ri tashkil etilganligi va uning ijrosini qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq bo'lib, shu orqali Pensiya jamg'armasiga yig'ilgan mablag'lar xarajatlarga to'g'ri taqsimlanadi. Dunyo mamlakatlarida pensiya tizimida mablag'larni kelib tushishi va ularning xarajatlari pensiya turi bo'yicha turli tarmoqlarga mos ravishda taqsimlanadi<sup>17</sup>. Mamlakatimizda pensiya tizimiga yo'naltiriladigan mablag'lar, ya'ni majburiy ajratmalar, to'lovlar va boshqa mablag'larning miqdori har moliya yili boshida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi. Ushbu majburiy to'lovlar va badallar yuridik jihatdan davlat soliqlari va yig'imlariga tenglashtiriladi.

Rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimining rivojlanganligi sababli xususiy pensiya fondlarining va korporativ pensiya fondlarining mavjudligi sababli aholi o'z xohishi bilan mablag' jamg'arib boradi. Balki bunga sabab, mamlakatlarda sug'urta tizimining rivojlanganligidir, chunki pensiyaga ham sug'urtaning bir turi sifatida qarash mumkin. Har bir davlat imkoniyatidan kelib chiqib, o'z pensiya tizimini va pensiya fondlarini tashkil etadi. Pensiya fondlari daromadlarini shakllantirishda turli bir-biriga o'xshash va farqli manbalarni ishlab chiqiladi. O'zbekistonda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi daromadlari quyidagi asosiy va qo'shimcha manbalar hisobidan shakllanadi<sup>18</sup>.

1. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga asosiy manbalar qatoriga yagona ijtimoiy to'lovning belgilangan miqdordagi tushumlari, fuqarolarning

---

<sup>17</sup> Mexmonov S., Toshmuxamedova D. Davlat byudjetidan ijtimoiy sohani qo'llab-quvatlashning o'ziga xos xususiyatlari. Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyoti va aholi farovonligini ta'minlash: yutuqlar, tendentsiya va istiqbollari. B.A. Begalovning umumiy rahbarligi va tahriri ostida. Ilmiy-ommabop risola. – T.: IQTISOD-MOLIYA. 2016.

<sup>18</sup>O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. 2013 yil. 26 dekabr. 10 bob. 53-modda.

sug'urta badallari va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar tushadi.

2. Qo'shimcha manbalar tarkibiga mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalarini to'lash xarajatlarining o'rnini qoplash uchun taqdim etiladigan regress talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolar tomonidan o'zni qoplanadigan mablag'lar tushumining bir qismi, O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari, yuridik shaxslarning imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari, fuqarolarning ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari, majburiy to'lovlar, badallar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun hisoblangan jarimalar va penyalar summasining bir qismi, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoxud sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda zararining o'rnini qoplash uchun to'lanadigan nazarda tutilgan mablag'lar, vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni joylashtirishdan olingan daromadlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar kiradi.

Bugungi kunda jahonning ko'pgina davlatlarida pensiya jamg'armasining daromadlari xarajatlarini qoplolmaslik holatlari kuzatilmoqda. Mazkur holatlarni mamlakatimizda yuz berishini oldini olish uchun bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi. Bundan tashqari pensiya va nafaqalar miqdorini oshirish, pensionerlarning ijtimoiy himoyasini ko'chaytirish, aholi turmush darajasini oshirish kabi bir qancha muammolar mavjud.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari yil davomida xarajatlarini qoplay olmasa davlat byudjetidan mablag' ajratiladi. Pensiya jamg'armasiga kelib tushadigan mablag'lar yillik tahlil qiladigan bo'lsak, ularning yildan-yilga o'sib borishini ko'rish mumkin. Jamg'armaning umumiy daromadlari ham o'sgan, lekin jami daromadiga nisbatan foizlar ayrim manbalarda kamaygan.

**O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi daromadlari tarkibi va tuzilishi<sup>19</sup>**

Ko‘rsatkichlar	2014 yil		2015 yil		2016 yil		2017 yil		2018 yil (reja)	
	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%
Daromadlar	13013,7	100,0	16557,0	100,0	18113,3	100,0	19505,1	100,0	20232.6	100.0
Yil boshiga qoldiq	1067,3	8,2	2592,0	15,7	2568,3	14,2	2282,0	11,7	3007.5	14.9
Ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to‘lovdan tushumlar	7299,5	56,1	8324,2	50,3	9474,0	52,3	10226,0	52,4	11808.0	58.4
Fuqarolarning majburiy sug‘urta badallari	1877,2	14,4	2463,8	14,9	3235,0	17,9	3993,9	20,5	4466.3	22.1
Mahsulot sotish hajmidan majburiy ajratmalar	1933,0	14,9	2063,8	12,5	1527,0	8,4	1429,7	7,3	2059.9	10.2
Boshqa daromadlar	836,7	6,4	1113,1	6,7	1291,0	7,2	1555,0	8,0	1852.4	9.1
Soliqsiz tushumlar	-	-	-	-	18,0	0,1	18,0	0,09	46.0	0.1

<sup>19</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1887, PQ-2099, PQ-2270, PQ-2455, PQ-2699, PQ-3454-sonli Qarorlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Pensiya jamg'armasining daromadlari shaklantirishda muhim o'rinni yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar egallaydi. Yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar 2013 yilga nazar soladigan bo'lsak jami daromadlarga nisbatan 51,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2014 йилга келиб 56.1 фоизга тушган, 2016 yilda 52.3 foizga tushgan bo'lsa, 2017 yilga kelib esa 52,4 foizni tashkil qilgan. Bunda 2014 yilga nisbatan pasayish tendensiyasini ko'rishimiz mumkin. Fuqarolarning ish haqidan majburiy sug'urta badallari esa o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Ya'ni, 2013 yilda jami daromadlarga nisbatan ushbu daromad turining ulushi 14,4 foizni tashkil qilgan, 2015 yilda 14.9 foizni tashkil qilgan, 2016 yilda 17.9 foizga etgan, 2017 yilga kelib esa 20.5 foizni tashkil qilgan. Mahsulot sotish hajmidan majburiy ajratmalarni ko'radigan bo'lsak 2014 yilda 14.9 foizni tashkil qilgan, 2015 yilda 12.5 foizga tushgan, 2016 yilda 8.4 foizni tashkil qildi, 2017 yilga keli esa 7.3 foizga tushgan, 2018 yilda 10.2 foizni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Pensiya jamg'armasining daromadlariga ta'sir etuvchi ichki omillar bilan bir qatorda tashqi omillar ham mavjud. Jahonda yuz berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar mamlakatlar pensiya tizimlariga, ularning daromad va xarajatlariga ta'sir etuvchi tashqi umumiy omillari sifatida e'tiborlidir. Mamlakatlardagi demografik o'zgarishlarning, ayniqsa, migratsiya bilan bog'liq muammolar pensiya tizimida ayrim muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bunday muammolarning echimi sifatida aholining kelgusidagi pensiya yoshiga etganda yoki mehnat layoqatini yo'qotganda o'zini-o'zi ijtimoiy himoyalash, ya'ni sug'urtalashga qiziqishini oshirish, xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib xususiy va korporativ pensiya fondlarini tashkil etish hamda aholining real daromadlarini oshirish, aholining iqtisodiyotda bandligini ta'minlash lozim.

O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksida "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti, ijtimoiy nafaqalar to'lash,



kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan majburiy to'lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag'larni jamlash belgilangan"<sup>20</sup>. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan Pensiya jamg'armasiga undiriladigan mablag'lar soliqlarga tenglashtirilgan bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslardan majburiy ravishda undirildi va mablag'larning o'z vaqtida to'liq undirilishi Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga yuklatildi.

2-jadval

**Dunyo mamlakatlarida mehnatga layoqatli aholi sonining o'zgarishi (foizda )<sup>21</sup>**

Mamlakatlar	Mehnatga layoqatlilarning aholi umumiy sonidagi ulushi		
	2010 yil	2050 yil	farqi
AQSh	62	56	-6
Yevropa ittifoqi	60	50,3	-9,7
Yaponiya	57	44,6	-12,4
Xitoy	68	53,7	-14,3
Rossiya	67,4	52,1	-15,3

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham ayni shu muammolarga katta e'tibor qaratilgani masalaning qay darajada keng qamrovli ekanini yaqqol isbotlaydi.

Respublikamizda sug'urta badallari to'lovlarini yig'ish va ularni sarflashni tartibga solish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim<sup>22</sup>:

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi. 2013 yil. 26 dekabr. 10 bob. 53-modda.

<sup>21</sup> Abdullaev Z. A. Xorijiy davlatlarda pensiya ta'minoti tizimini isloh etish muammolari. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2014 yil. 21 noyabr. -B.15.

<sup>22</sup> Nurmuxamedova B. I. Pensiya tizimidagi islohotlarni davom ettirishning zarurligi va yo'nalishlari. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari. Vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2017 yil. 24 mart -B.66.

- Pensiya jamg'armasi mablag'larini faqatgina pensiya sug'urtasi bilan qamrab olingan fuqarolarning ijtimoiy himoyasiga sarflash;
- sug'urta badallari to'lovlarini to'laydigan har bir yuridik va jismoniy shaxslarning aniq hisobini elektron tarzda yuritish va uning xavfsizligini ta'minlash;
- har bir fuqaro tomonidan to'lanayotgan sug'urta badallarining shaxsiy hisob-kitobini yuritish;
- har bir fuqaroning ish stajlari hisob-kitobini yuqori muhofazalangan holda elektron tarzda yuritib borish;
- sug'urta badalini to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tmaganlar, badallarni o'z vaqtida to'lamayotgan yoki kamaytirib to'layotganlarga solinadigan jarimalar miqdorini oshirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, pensiya tizimi barqarorligini ta'minlashga oid quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

1. Xususiy pensiya tizimini joriy etishning qonunchilik asoslarini yaratish kerak.
2. Pensiya ta'minoti tizimida muassasalar va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro axbarot almashinuv tizimini takomillashtirish lozim.

Xususiy pensiya fondlarini shakllantirish va uni qat'iy nazorat tizimini ta'minlash kerak.

## **2.2. Davlat pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy mablag'laridan foydalanish amaliyoti tahlili**

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunda nazarda tutilgan tartibda davlat tomonidan pensiya bilan ta'minlanish huquqiga egadirlar. Fuqarolar pensiya olish huquqi paydo bo'lganidan so'ng istalgan paytda pensiya tayinlashni so'rab murojaat etishlari mumkin. Shuningdek davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga ularning o'zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi.

Davlat pensiya ta'minoti - bu mamlakatimizda fuqarolarga Konstitutsiyamizda kafolatlangan moddiy ta'minotni taqdim etish maqsadida tashkil etilayotgan huquqiy-tashkiliy institutlar va normalar majmuidir. Shu bois pensiya ta'minoti mamlakatimizda shakllangan ijtimoiy muhofaza tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, mehnatga layoqatsiz aholi va kam ta'minlangan fuqarolarning turmush darajasi va farovonligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, xuquqiy, ijtimoiy, tashkiliy xususiyatga ega kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi<sup>23</sup>.

Pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilgan shaxsning yashash joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limiga taqdim etiladi. Xodimga va uning oila a'zolariga pensiya (boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi) tayinlangan taqdirda, pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza xodimning yoki vafot etgan boquvchining (uning oila a'zolariga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlangan taqdirda) oxirgi ish joyi bo'yicha tashkilotning ma'muriyati orqali ariza beruvchining yashash joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limiga berilishi mumkin. Pensiya tayinlanadigan shaxs balog'atga etmagan yoki huquqiy muomalaga layoqatsiz bo'lgan taqdirda, ariza uning ota-onasi yoki vasiysi tomonidan taqdim etiladi.

Barcha zarur hujjatlar bilan birga ariza qabul qilingan kun pensiya so'rab murojaat etilgan kun hisoblanadi. Agar ariza pochta orqali yuborilsa va bunda barcha zarur hujjatlar ham ilova qilingan bo'lsa, ushbu arizani jo'natishning pochta shtempelida ko'rsatilgan sanasi pensiya so'rab murojaat etilgan kun hisoblanadi. Arizaga barcha zarur hujjatlar ilova qilinmagan hollarda, Pensiya jamg'armasi bo'limi qo'shimcha yana qanday hujjatlar taqdim etilishi lozimligini tashkilot ma'muriyatiga yoki ariza beruvchiga ma'lum qiladi. Agar ular qo'shimcha hujjatlar taqdim etilishi lozimligi to'g'risida xabarnoma olingan kundan boshlab, uch oydan kechikmay taqdim etilsa, pensiya tayinlash

---

<sup>23</sup> Bayev X.I. Aholini ijtimoiy himoyalashni tashkil etish va boshqarish muammolari. Monografiya. -T.: Iqtisodiyot. 2012 y.

to'g'risidagi ariza qabul qilingan kun pensiya tayinlash uchun murojaat qilingan kun hisoblanadi.

Yoshga doir pensiya olish huquqiga: erkaklarga-60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda; ayollarga-55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar. Bundan tashqari pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar kamida 5 yil ijtimoiy sug'urtalangan ish staji mavjud bo'lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan 1-, 2-, 3- sonli ro'yxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar hamda imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga urush nogironlari, bolalikdan nogiron farzandlarning onalari, liliputlar va pakanalar ham egadirlar.

Nogironlik pensiyalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari, deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish staji davomiyligidan qat'i nazar tayinlanadi.

20 yoshga to'lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to'xtatilganidan keyin nogiron bo'lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'lgan voyaga etmagan farzandlar, ular farzandlikka olinganlarida ham bu huquqni saqlab qoladilar.

O'gay o'g'il va o'gay qiz, agar ular ota-onalaridan aliment olmagan bo'lsalar, haqiqiy farzandlar singari pensiya olish huquqiga egadirlar.

O'gay ota va o'gay ona, agar vafot etgan o'gay o'g'ilni (qizni) 18 yoshga to'lgunga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan yoki boqqan bo'lsalar, haqiqiy ota va ona singari pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari va boquvchisini yo'qotgan pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar yoki

vafot etgunga qadar quyidagi jadvalda belgilangan ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi:

3-jadval<sup>24</sup>

**Nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlash uchun talab etiladigan ish stajlari to'g'risida ma'lumot**

<b>Yosh</b>	<b>Ish staji</b>
23 yoshga qadar	2
23 yoshdan 26 yoshga qadar	3
26 yoshdan 31 yoshga qadar	5
31 yoshdan 36 yoshga qadar	7
36 yoshdan 41 yoshga qadar	9
41 yoshdan 46 yoshga qadar	11
46 yoshdan 51 yoshga qadar	14
51 yoshdan 56 yoshga qadar	17
56 yosh va undan oshganda	20

Pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lmagan umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruh nogironlariga va umumiy kasallik oqibatida vafot etgan hamda nogironlik pensiyasini tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lmagan boquvchisini yo'qotgan oila a'zolariga pensiya mavjud stajga mutanosib ravishdagi miqdorda tayinlanadi.

Pensiya tayinlash masalalarini ko'rib chiqish uchun Pensiya jamg'armasi bo'limida Pensiya jamg'armasi Kuzatuv Kengashining 2011 yil 10 maydagi 6-sonli qaroriga ilova bo'lgan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limlarining pensiya tayinlash bo'yicha komissiyalari to'g'risidagi" namunaviy Nizomga asosan pensiya tayinlash bo'yicha komissiya tuziladi.

Komissiya boshqa zarur hujjatlar bilan birgalikda pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza tushgandan keyin o'n kun muddatda pensiya tayinlash to'g'risida, pensiya tayinlashni rad etish haqida, taqdim etilgan hujjatlarning

<sup>24</sup> Pensiya ta'minoti qonunchiligi hujjatlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

asoslanganligini tekshirish to'g'risida va shu kabilar to'g'risida tegishli qaror qabul qiladi. Agar ariza beruvchi pensiya olish huquqiga ega bo'lgan holda pensiya tayinlash uchun murojaat qilishda nazarda tutilgan zarur hujjatlarni taqdim etmasa yoki taqdim etilgan hujjatlar ularning asoslanganligi va ishonchliligi yuzasidan qo'shimcha tekshirishni talab qilsa, komissiya tomonidan ariza beruvchining yozma roziligiga ko'ra, shubha tug'dirmaydigan mavjud hujjatlar bo'yicha pensiya tayinlanishi mumkin. Agar ariza beruvchi shubha tug'dirmaydigan mavjud hujjatlar bo'yicha pensiya tayinlashga rozi bo'lmasa, komissiya ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish tamom bo'lgandan keyin pensiya tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Pensiya tayinlash rad etilgan taqdirda, Pensiya jamg'armasi bo'limi tegishli qaror chiqarilgandan so'ng besh kundan kechikmay tashkilot yoki ariza beruvchiga rad etish sabablarini, qabul qilingan qaror yuzasidan shikoyat qilish tartibi ko'rsatilgan bildirishnomani beriladi yoki yuboriladi hamda barcha taqdim etilgan hujjatlarning asl nusxalarini hujjatlar olinganligi to'g'risidagi tilxat bilan ariza beruvchiga yoki qonuniy vakilga qaytariladi. Komissiyaning qarori yuzasidan ariza beruvchi tomonidan Pensiya jamg'armasi bo'limining bevosita yuqori organiga yoki sudga shikoyat qilish mumkin<sup>25</sup>.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega bo'lgan oila a'zolarining barchasiga bitta umumiy pensiya tayinlanadi. Oila a'zosining talabiga ko'ra uning pensiyadagi ulushi ajratiladi va unga alohida to'lanadi.

Boshqa tumanda (shaharda) yashaydigan oila a'zosi o'ziga pensiya ulushini tayinlash yoki ajratish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilganda, murojaat qilganning yashash joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limi rasmiylashtiradigan yoki ushbu oilaning amaldagi pensiya hujjatlar yig'majildi turgan Pensiya jamg'armasi bo'limiga tegishli xabarnomani yuboradi.

---

<sup>25</sup> Abdullaev M. Zamonaviy pensiya tizimi va uning istiqbollari //Bozor, pul va kredit. 2013 yil. № 6, 8-b.

Xabarnomaga ariza va yangidan murojaat qilgan oila a'zosining pensiya olish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar ilova qilinadi.

Shaxslarning ayrim toifalari Qonunga muvofiq imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya olish huquqiga ega. Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 maydagi 250-son qarori bilan tasdiqlangan 1, 2 va 3-ro'yxatlarda nazarda tutilgan ishlarni bajarish bilan band bo'lgan xodimlar ega bo'ladilar. Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ish hajmining qisqarishi yoxud korxonaga tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz, deb e'tirof etilgan shaxslarga yoshga doir muddatidan oldin beriladigan pensiya tayinlanadi.

To'liq bo'lmagan ish staji sharoitida pensiya: a) yoshga doir pensiya - ushbu Qonunning 35-bandi "a", "b", "v" va "g" kichik bandlarida nazarda tutilgan kamida 5 yil ish staji mavjud bo'lganda pensiya tayinlash uchun etarli ish stajiga ega bo'lmagan shaxsga; b) nogironlik pensiyasi - pensiya tayinlash uchun etarli ish stajiga ega bo'lmagan umumiy kasallik oqibatidagi I va II guruhlar nogironlariga (shu jumladan, bolalikdan nogironlarga); v) boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi - umumiy kasallik oqibatida vafot etgan va nogironlik pensiyasini tayinlash uchun etarli ish stajiga ega bo'lmagan boquvchisini yo'qotgan oila a'zolariga tayinlanadi.

Ish staj to'liq bo'lmagandagi pensiya miqdori Qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlardan past bo'lishi mumkin emas. Staj to'liq bo'lmagan holda pensiya olgan vafot etgan pensionerning oila a'zolariga pensiya vafot etgan boquvchiga pensiya undan kelib chiqib, tayinlangan ish stajiga mutanosib ravishda tayinlanadi.

To'liq bo'lmagan ish staji holatida pensiya quyidagi tarzda mavjud stajga mutanosib ravishda hisoblab chiqiladi: dastlab tegishli to'liq pensiya aniqlanadi, ushbu pensiya talab etiladigan ish staji oylari soniga bo'linadi, olingan summa amaldagi ish staji oylari soniga ko'paytiriladi.

**2011-2017 yillarda Namangan viloyatida pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi fuqarolar soni to'g'risida ma'lumot<sup>26</sup>**


<b>T/R</b>	<b>Hududlar nomi</b>	<b>01.01.2011</b>	<b>01.01.2012</b>	<b>01.01.2013</b>	<b>01.01.2014</b>	<b>01.01.2015</b>	<b>01.01.2016</b>	<b>01.01.2017</b>
1	Namangan sh.	40467	39798	39104	38555	38571	39007	40337
2	Kosonsoy t.	17728	17467	9870	16247	16394	16394	16742
3	Mingbuloq t.	10469	10347	16320	9805	9826	9842	9998
4	Namangan t.	18232	18340	18304	18213	18187	18150	18425
5	Norin t.	14239	14346	14001	14027	14180	14425	14865
6	Pop t.	19722	19174	18849	18745	18942	19155	19400
7	To'raqo'rg'on t.	20266	19843	18919	18817	18751	18866	19510
8	Uychi t.	19545	19689	19055	18988	19239	19216	19760
9	Uchqo'rg'on t.	15235	15097	14961	14824	14857	15093	15733
10	Chortoq t.	17344	17523	16664	16221	16458	16394	16828
11	Chust t.	23659	23230	22810	22630	22995	23203	23907
12	Yangiqo'rg'on t.	19721	19225	18175	17867	17661	17756	18347
<b>Viloyat bo'yicha</b>		<b>236627</b>	<b>234079</b>	<b>227032</b>	<b>224939</b>	<b>226061</b>	<b>227501</b>	<b>233852</b>

<sup>26</sup> Namangan viloyati Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Namangan viloyat Pensiya jamg'armasi boshqarmasining amalga oshirilayotgan ish faoliyatini tahlil qilishda, birinchi navbatda 2011 yildan 2017 yillarda viloyatda mavjud pensiya va nafaqa oluvchilar soni dinamikasini tahlil qilamiz.

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin. Namangan viloyatida 2011 yilda pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi fuqarolar 236627 nafarni tashkil qilmoqda. Pop tumanida esa 19722 nafarni tashkil qilmoqda, viloyat bo'yicha jami fuqarolarga nisbatan 8,3 foizni tashkil qilmoqda. 2015 yilga kelib viloyat bo'yicha 226061 nafarni tashkil qilmoqda, Pop tumanida esa 18942 nafarni tashkil etmoqda, jami fuqaroga nisbatan tumanda 8,4 foizni tashkil qilmoqda. 2016 yilda viloyat bo'yicha 227501 nafarni tashkil etgan bo'lsa, Pop tumanida 19155 nafarni tashkil qilmoqda, jamiga nisbatan 8,4 foizni tashkil qilmoqda. 2017 yilga kelib viloyat bo'yicha 233852 nafarni tashkil qildi, Pop tumanida esa 19400 nafarni tashkil qilmoqda, jamiga nisbatan 8,3 foizni tashkil qildi.



**4-rasm. 2015-2017 yillarda Namangan viloyatida pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchi fuqarolar soni dinamikasi<sup>27</sup>**

<sup>27</sup> Namangan viloyati Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2011 yil 1 yanvardan Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan imtiyozli shartlarda pensiya chiqish xuquqini beradigan ishlar, kasblar, lavozimlar, vazifalar va ko'rsatkichlarni 1-, 2-, 3-sonli ro'yxatiga o'zgartirish kiritilganligi;

- 2011 yildan umumiy kasallik tufayli 3-gurux nogironiga pensiya to'lovi to'xtatilganligi;

- Yoshga doir pensiyaga chiqish uchun kamida 5 yillik ijtimoiy sug'urtalangan ish staji talab qilinishi va boshqa holatlarni aytib o'tish mumkin.

2014 yildan 2017 yilgacha har yili pensiya va nafaqa oluvchilar soni ortib borishini ko'rishimiz mumkin. Pensiya va nafaqa oluvchilarning sekin - asta ortib borishiga sabab 2011 yilda imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya chiqa olmagan fuqarolarning umumiy yoshga doir pensiyasiga chiqish yoshiga to'lganligi hamda yoshga doir pensiyaga chiqish uchun etarli 5 yilga etmagan fuqarolarning yoshga doir nafaqa yoshiga to'lganligini aytib o'tishimiz mumkin.

5-jadval


**Pensiya jamg'armasining Namangan viloyati boshqarmasida pensiya turlari bo'yicha ma'lumot<sup>28</sup>**

<b>№</b>	<b>Pensiya turlari</b>	<b>2011 y</b>	<b>2012 y</b>	<b>2013 y</b>	<b>2014 y</b>	<b>2015 y</b>	<b>2016 y</b>	<b>2017 y</b>
<b>1</b>	Yoshga doir pensiya	154 563	158 693	158 093	159 136	161 262	163 684	169 609
<b>2</b>	Nogironlik pensiyasi	43 348	38 928	33 547	30 758	29 966	29 050	28 577
<b>3</b>	Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi	18 692	17 777	17 444	16 629	16 003	15 374	15 191
<b>4</b>	Ijtimoiy nafaqa	20 024	18 681	17 948	18 416	18 830	19 393	20 475
	<b>Jami</b>	<b>236 627</b>	<b>234 079</b>	<b>227 032</b>	<b>224 939</b>	<b>226 061</b>	<b>227 501</b>	<b>233 852</b>

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki 2017 yil da yoshga doir pensiya oluvchilar 73 foizni tashkil qilmoqda, nogironlik

<sup>28</sup> Namangan viloyati Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

pensiyasini oluvchilar 12 foizni tashkil qilmoqda, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini oluvchilar esa 6 foizni tashkil etmoqda.



**5-rasm. 2017 yilda Pensiya jamg'armasining Namangan viloyati boshqarmasida pensiya turlari bo'yicha ma'lumot<sup>29</sup>**

Yuqoridagilardan hulosaga kelish mumkin, oxirgi yillarda yoshga doir pensiya oluvchilar sonining o'sib borganligi, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiya oluvchilar sonining kamayganligi hisobiga ortgan. Nogironlik pensiyasi oluvchilar soni kamayishiga umumiy kasallik tufayli 3-guruh nogironiga davlat pensiyasini tayinlanishini bekor qilinishi hamda umumiy yoshga doir pensiya olish huquqini beradigan yoshga to'lgan nogironlarni nogironlik pensiyasidan yoshga doir pensiyasiga o'tganligini keltirish mumkin.

Pensiya va nafaqani bank plastik kartochkasi yoki jismoniy shaxslarning omonat hisobvarag'i orqali olayotgan shaxsning arizasiga bank plastik kartochkasi bo'yicha hisobvaraq yoki jismoniy shaxslarning omonat hisobvarag'i ochganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma va tijorat bank hamda mijoz o'rtasida imzolangan shartnomaning nusxasi ilova qilinadi.

<sup>29</sup> Namangan viloyati Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Bunda pensiya va nafaqa to'lovi shaxsning arizasida ko'rsatilgan muddat davomida amalga oshiriladi. Arizasida ko'rsatilgan muddat tugagandan so'ng pensiya va nafaqa to'lovi to'xtatiladi hamda faqat pensioner yoki nafaqa oluvchining arizasiga asosan tiklanadi.

Pensiya bank plastik kartochkasi yoki jismoniy shaxslarning omonat hisobvarag'iga to'langanda, pensioner har 6 oyda Pensiya jamg'armasi bo'limiga kelish yo'li bilan o'zining pensiya summasini olish huquqini tasdiqlashi zarur. Agar belgilangan muddatda pensiya jamg'armasi bo'limiga kelmagan taqdirda, pensiya jamg'armasi bo'limi xodimlari 10 kun ichida pensioner tirik ekanligi, ishga joylashganligi, yashash joyi o'zgarganligi yoki O'zbekiston Respublikasidan tashqarisiga chiqib ketganligi, jazoni ijro etish muassasasida ekanligi, keksalar va nogironlarning internat uylarida (pansionatlarida) yashayotganligi holatlarini aniqlash uchun pensioner yashaydigan joyga boradi. Shaxsning olinadigan pensiyaga huquqlari tasdiqlangandan so'ng to'lov navbatdagi 6 oyga davom ettiriladi<sup>30</sup>.

Pensioner huquqlari tasdiqlanmagan taqdirda, pensiya to'lash fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining tegishli vakillari va uning qo'shnilari ishtirokida pensiya jamg'armasi bo'limi xodimlari tomonidan tuzilgan, to'lanayotgan pensiyani to'lashga va uning miqdori asoslanganligiga ta'sir ko'rsatuvchi holatni tasdiqlaydigan dalolatnoma asosida to'xtatib turiladi. Mazkur dalolatnoma asosida komissiya pensiyani to'lashni to'xtatib turish (to'xtatish) yoki uning miqdorini o'zgartirish to'g'risida uch kun muddatda tegishli qaror qabul qiladi. Pensiya va nafaqani to'lash qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo'yicha ham amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi tashqarisida rasmiylashtirilgan ishonchnomaga ushbu hujjat rasmiylashtirilgan davlatning vakolatli davlat organi tomonidan

---

<sup>30</sup> Tursunov J. O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimidagi islohotlar. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari. Vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2017 yil. 24 mart - B.217.

apostil qo'yilishi lozim. Fuqarolik, oilaviy va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar konventsiyasining ishtirokchi davlatlari – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlar bundan mustasno<sup>31</sup>.

Ishonchnoma bergan shaxs pensiya to'laydigan pensiya jamg'armasi bo'limiga bir yilda kamida bir marta kelib, tayinlangan pensiyaga bo'lgan o'z huquqini ariza hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim etish orqali tasdiqlashi kerak bo'ladi. Ishonchli vakil pensiya va nafaqa to'lashga ta'sir etishi mumkin bo'lgan, o'ziga ma'lum barcha holatlar to'g'risida Pensiya jamg'armasi bo'limiga xabar berishi shart. Ishonchnoma tegishli pochta aloqasi shahobchasi saqlanadi.

Pensiya va nafaqalarning bank plastik kartochkalari orqali to'lash uchun mablag'larni o'tkazish pensiya jamg'armasi bo'limlari tomonidan taqdim etilgan to'lov topshiriqnomasi va unga ilova qilingan qaydnoma asosida amalga oshiriladi.

To'lov topshiriqnomasi va unga ilova qilingan qaydnoma taqdim etilgan kundan boshlab, keyingi ish kunidan kechiktirilmay mablag'lar xizmat ko'rsatuvchi tijorat bank filiali tomonidan pensioner yoki nafaqa oluvchiga ochilgan hisobvarag'iga kirim qilinadi. Shaxsning tanlovi bo'yicha unga to'lanishi lozim bo'lgan pensiya yoki nafaqa summasi, bir vaqtning o'zida pensiya va nafaqa to'lovining bir nechta shaklidan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin. Pensiya va nafaqa to'lovi shaklini o'zgartirish uchun shaxs pensiya jamg'armasi bo'limiga bu borada ariza bilan murojaat qiladi.

Pensioner ishga qabul qilinganda ushbu tashkilot rahbari pensiyani tayinlangan pensiya jamg'armasining tegishli bo'limiga pensioner ishga qabul qilinganligi to'g'risida besh kun ichida xabar qilishi, shuningdek ishga qabul qilish to'g'risidagi buyruqdan ko'chirmani va mehnat shartnomasini taqdim etishi kerak bo'ladi.

---

<sup>31</sup> Vaxobov A. Milliy pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmi va amalga oshirish dastaklari. "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimining dolzarb myammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy tezislari to'plami. 2017 y 14-mart.11-16-b.

Monitoring guruhi rahbari ijro hujjatini pensiya va nafaqadan chegirmalar to'g'risida ijro hujjatlarini ro'yxatga olish kitobiga qayd etadi va mazkur shaxs yashaydigan hududga xizmat ko'rsatish uchun mas'ul monitoring guruhi inspektoriga topshiradi.

Shaxs O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida boshqa tuman (shahar)ga ko'chib o'tgan taqdirda pensioner yoki nafaqa oluvchining avvalgi yashash joyi bo'yicha pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan pensiya yig'majildi va attestatga pensiya va nafaqadan ortiqcha to'lovlar to'g'risida ma'lumotlar kiritiladi. Ortiqcha to'langan pensiya va nafaqa summasi qoldig'ini ushlab qolish shaxsning yangi yashash joyidagi pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan davom ettiriladi.

Ortiqcha to'langan pensiya va nafaqa summasi bo'yicha qarzdorlikka ega bo'lgan pensioner va nafaqa oluvchining vafoti munosabati bilan olinmay qolgan pensiya va nafaqalar summasini tayinlashda ortiqcha to'lov summasi olinmay qolgan pensiya va nafaqa summasidan undirib qolinishi lozim.

Pensioner va nafaqa oluvchining vafoti yoki O'zbekiston Respublikasidan tashqarisiga doimiy yashash uchun ko'chib ketishi munosabati bilan pensiya va nafaqa summasidan ortiqcha to'lovlarni hisobdan chiqarish komissiya qaroriga asosan amalga oshiriladi. Pensiya va nafaqa summasidan ortiqcha to'lovlar sud qaroriga asosan ham hisobdan chiqarilishi mumkin. Pensiya va nafaqa summasidan aniqlangan ortiqcha to'lovlar naqd pulda yoki pul o'tkazish yo'li bilan Pensiya jamg'armasining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga tegishli to'lovlarni kiritish orqali undirilishi mumkin. Bunda to'lov topshiriqnomasining raqami, summasi va sanasi shaxsiy kartochkaga va axborot tizimiga kiritiladi<sup>32</sup>.

Komissiyaning chegirma qilish to'g'risidagi qarori va pensiya (nafaqa)lar bo'yicha ortiqcha to'lovlarni undirilganligi to'g'risida to'lov hujjatlari nusxasi monitoring guruhi inspektori tomonidan pensiya va nafaqalarni tayinlash

---

<sup>32</sup> Davronov Sh.Z. Davlat pensiya ta'minoti tizimini barqaror rivojlanmoqda va takomillashtirilmoqda /Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. Toshkent. 2014. 21 noyabr –8-9-b.

guruhining tegishli inspektoriga pensiya va nafaqalarni tayinlash guruhiga taqdim etilgan hujjatlarni ro'yxatga olish kitobiga qayd qilish orqali pensiya yig'majildiga tikilishi uchun taqdim etiladi.

Tayinlangan pensiya va nafaqani to'lash pensioner yoki nafaqa oluvchi vafot etganda, tayinlangan pensiya yoki nafaqaga huquqlar yo'qolganda, doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasi tashqarisiga chiqib ketilganda to'xtatiladi. To'lov quyidagi holatlarda to'xtatib turiladi, ya'ni pensiya va nafaqa to'lash muddati tamom bo'lganda, ketma-ket uch oy mobaynida pochta aloqasi ob'ekti orqali pensiya olinmaganda, pensioner va nafaqa oluvchi sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etilganda, pensioner ruhiy bemorlar internat uylarida yashaganda, pensiya va nafaqani to'lashni to'xtatib turish to'g'risida pensioner yoki nafaqa oluvchi tomonidan ariza berilganda. Shaxsning sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida bo'lgan vaqti uchun pensiya va nafaqa to'lanmaydi. Shaxs ozod bo'lgandan keyin to'lov Pensiya jamg'armasi bo'limiga ariza berilgan kundan boshlab tiklanadi. Pensiya va nafaqalar to'lashni tiklash komissiya qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Pensiya jamg'armasi bo'limlari tomonidan joriy oyning 15-sanasiga qadar pensiya jamg'armasining hududiy boshqarmalariga talabnomalarni moliyalashtirish uchun pensionerlar va nafaqa oluvchilarning vafoti, ko'chib ketganligi, vaqtincha yo'qligi va boshqa sabablarga ko'ra to'lanmasdan qaytarilgan pensiya va nafaqalar summalari to'g'risida tezkor ma'lumotni belgilangan tartib va shakllarda taqdim etadilar.

Pensiya jamg'armasi hududiy boshqarmalari tomonidan to'lov oyining 18-sanasiga qadar talabnomalarni moliyalashtirish uchun pensionerlar va nafaqa oluvchilarning vafoti, ko'chib ketganligi, vaqtincha yo'qligi va boshqa sabablarga ko'ra to'lanmasdan qaytarilgan pensiya va nafaqalar summalari to'g'risida jamlanma tezkor ma'lumotni belgilangan shaklda tuzadilar va Pensiya jamg'armasining ijro etuvchi apparatiga taqdim etadilar. Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparati pensiya va nafaqalar to'lovi uchun xarajatlarni:

- joriy oyning 15-sanasigacha — o'tgan to'lov oyi talabnomasi hisob-kitobidan kelib chiqib, 50 foizdan kam bo'lmagan summalarda;
- joriy oyining 27-sanasigacha — Pensiya jamg'armasi hududiy boshqarmalari tomonidan taqdim etilgan jamlanma tezkor ma'lumotlarda aks ettirilgan to'lanmasdan qaytarilgan pensiya va nafaqalar mablag'lari summalarini hisobga olingan holda joriy to'lov oyi talabining qolgan summasi moliyalashtiriladi.

### **2.3. Davlat pensiya ta'minoti tizimida pensiya va nafaqalar tayinlash va to'lanishining amaldagi holati tahlili**

O'zbekisto Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-son qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizom qabul qilinib, unda jamg'armaning pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlarini va boshqa to'lovlarni tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularni to'lanishi monitoringini olib borish, ushbu maqsadlarga yo'naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni, shuningdek tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etishni amalga oshirish bo'yicha asosiy vazifalari, funktsiyalari va vakolatlari belgilandi.

2010 yildan boshlab pensiya va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash, to'lovini monitoring qilish hamda hisobotini yuritish Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan amalga oshirilmoqda. Mazkur jamg'arma, shuningdek, tibbiy-mehnat ekspertizasi faoliyatini tashkil etib kelmoqda.

Pensiya tizimida amalga oshirilayotgan huquqiy va iqtisodiy islohotlar samarasi o'laroq jamg'arma faoliyati birmuncha takomillashmoqda. Uning daromadlari xarajatlariga nisbatan sezilarli darajada oshdi. Bu pensiya va ijtimoiy nafaqalarni o'z vaqtida moliyalashtirish imkonini bermoqda. Jamg'arma pensiya ta'minoti tizimini xalqaro andozalarga muvofiqlashtirishga jiddiy



e'tibor qaratmoqda. Xususan, hududiy bo'linmalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xizmat sifati va xavfsizligini ta'minlashda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari imkoniyatidan unumli foydalanish, tizimdagi kadrlar salohiyatini oshirish, ilg'or bilim va ko'nikmalarini kuchaytirish bo'yicha muntazam ish olib borilyapti.

Shuni ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hamjihatlik tamoyillariga asoslangan muhim tarkibiy qismi bo'lib, u avlodlar birdamligining mustahkam mexanizmini yaratishga qaratilgan. Bugun ushbu tizim 3,3 million nafardan ortiq fuqaro yoki aholining qariyb 10 foizini qamrab olgan.

Pensiya jamg'armasi ijro etuvchi apparati pensiya va nafaqalar to'lovlari uchun mablag'larni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi bo'linmalari tomonidan Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy boshqarmalari uchun ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga moliyalashtiradi. Pensiya jamg'armasi hududiy boshqarmasi pensiya va nafaqalar to'lovlari uchun mablag'larni g'aznachilik bo'linmalari tomonidan Pensiya jamg'armasining tegishli bo'limlari uchun ochilgan shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga moliyalashtiradi. Pensiya jamg'armasi bo'limi tuzilgan qaydnomalardagi summalarga mos mablag'larni pochta aloqasi ob'ektlari va tijorat banki filiallarining tegishli hisobvaraqlariga, shuningdek, ishlovchi pensionerlar bo'yicha tashkilotlarning hisobvaraqlariga moliyalashtiradi. Pensiya va nafaqalar to'lovini moliyalashtirish uchun yo'naltiriladigan mablag'lar qat'iy maqsadli yo'nalishda sarflanishi lozim. Pensiya va nafaqalarni moliyalashtirish uchun to'lov hujjatlari belgilangan tartib va shakllarda to'lov hujjatlarini ro'yxatga olish kitobiga qayd qilinishi lozim.

Monitoring o'tkazish uchun mas'ul Pensiya jamg'armasi xodimi tegishli uchastkalarda yashovchi pensionerlar va nafaqa oluvchilar, ularning pensiyalari hamda nafaqalari miqdorlari aks ettirilgan ro'yxat bilan ta'minlanadi. Monitoring uchun mas'ul har bir pensioner va nafaqa oluvchi bilan suhbat o'tkazadi, natijasi bo'yicha belgilangan shakldagi monitoring natijalari bo'yicha

anketani to'ldiradi. Monitoring davomida monitoring uchun mas'ul quyidagi faktlarni aniqlaydi:

- pensioner yoki nafaqa oluvchining tirik ekanligi;
- ishga joylashganligi;
- yashash joyi o'zgarganligi yoki O'zbekiston Respublikasidan tashqarisiga doimiy yashash uchun ko'chib ketganligi;
- jazoni ijro etish muassasasida ekanligi;
- doimiy (vaqtinchalik) ro'yxatdan o'tgan joyi;
- pasportning amal qilish muddati;
- keksalar va nogironlarning internat uylarida (pansionatlarida) yashayotganligi;
- ishonchnoma orqali pensiya va nafaqa to'lovi to'g'ri to'lanayotganligi;
- pensiya va nafaqani qaydnomada ko'rsatilgan pensionerga yoki nafaqa oluvchiga shaxsan to'lanayotganligi;
- bank plastik kartochkasining mavjudligi;
- pensiya va nafaqa to'loviga ta'sir qiladigan boshqa holatlar.

Monitoring o'tkazish davomida aniqlangan huquqbuzilish holatlari bo'yicha monitoring uchun mas'ul tomonidan shaxs yoki tegishli fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organi vakili ishtirokida dalolatnoma rasmiylashtiradi. Monitoring o'tkazish davomida Pensiya jamg'armasi bo'limi tegishli pochta aloqasi ob'ektlaridan qaydnomalar, pochta bo'linmalari tomonidan to'lanadigan pensiya va nafaqalar balans hisobvarag'ining ko'chirmasi, pensiya va nafaqa to'lovi amalga oshirilgan ishonchnomalarning asl nusxalarini, shuningdek pensiya va nafaqalar to'lovi bilan bog'liq boshqa hujjatlarni talab qilish huquqiga ega.

Monitoring guruhi inspektorlari shuningdek Pensiya jamg'armasi bo'limiga qabulga kelgan pensionerlar va nafaqa oluvchilar bilan monitoring o'tkazadilar va monitoring natijalari bo'yicha anketani rasmiylashtiradilar.

Monitoring uchun mas'ul monitoring natijalari bo'yicha hujjatlarni Pensiya jamg'armasi bo'limi boshlig'iga taqdim etadi. Pensiya jamg'armasi bo'limi boshlig'i monitoring natijalari bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi yoki qo'shimcha o'rganishni tashkil etadi. Zarur hollarda Pensiya jamg'armasi bo'limi tasdiqlangan grafiklardan tashqari to'satdan o'rganishlar tashkil etish huquqiga ega.

Pensiya jamg'armasi bo'limi monitoring natijasida aniqlangan faktlar yuzasidan tegishli pochta aloqasi ob'ektlariga va tijorat banklari filiallariga kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek mablag'larni tiklashga oid zarur chora-tadbirlarni ko'rish uchun xat (murojaat) yuboradi. Pochta aloqasi ob'ekti va tijorat banki filiali kamchiliklarni bartaraf etish va o'zlashtirilgan mablag'larni yoki noqonuniy to'langan pensiya va nafaqalar summalarini tiklanishi bo'yicha chora-tadbirlar ko'radi. Pensiya jamg'armasi hududiy boshqarmasi tomonidan Pensiya jamg'armasi bo'limlari xodimlarini jalb qilgan holda o'tkazilayotgan monitoring sifati o'rganiladi.

Namangan viloyati bo'yicha 2017 yilning 1 yanvar holatiga jami pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilarning umumiy soni 233 852 nafarni tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davri (227 501 nafar)ga nisbatan 6351 nafarga (yoshga doir pensiyasi +5925, nogironlik pensiyasi -473, boquvchisining yo'qotganlik pensiyasi -183 va ijtimoiy nafaqa +1082) oshganligini kuzatsa bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichlarni aholi soniga solishtiradigan bo'lsak, 2014 yil 1 yanvar holatiga jami pensiya va nafaqa oluvchilar aholining 9,3 foizini, 2014 yilning 1 yanvar holatiga 9,0 foizini, 2016 yilning 1 yanvar holatiga 9,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, bugungi kunda, ya'ni 2017 yilning 1 yanvar holatiga 9,0 foizni tashkil etadi. Bu asosan aholi o'rtasida nogironlik pensiyasi oluvchilarning kamayishi oqibatida bo'lib, nogironlik pensiya oluvchilarning aholi sonidagi ulushi 2014 yil 1 yanvar holatiga 1,23 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yil 1 yanvar holatiga 1,15 foizni, 2016 yilning 1 yanvar holatiga 1,16 foizni va 2017 yilning 1 yanvar holatiga 1,1 foizni tashkil etadi.

**Namangan viloyatining tuman (shahar) Pensiya jamg'armasi bo'limlari bo'yicha 2016-yil 1-yanvar va 2017-yil 1-yanvar holatiga pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining harakati to'g'risida tahliliy ma'lumot<sup>33</sup>**

№	Xududlar nomi	2016 yil 1 yanvar holatiga pensiya turlari bo'yicha jami				2017 yil 1 yanvar holatiga pensiya turlari bo'yicha jami				Pensiya turlari bo'yicha farq (kishi soni)				Farqi jami (kishi soni)
		Yoshga doir pensiyalar	Nogironlik bo'yicha pensiyalar	Boquvchisini yuqotganlik pensiyalar	Ijtimoiy nafaqa	Yoshga doir pensiyalar	Nogironlik bo'yicha pensiyalar	Boquvchisini yuqotganlik pensiyalar	Ijtimoiy nafaqa	Yoshi bo'yicha pensiyalar	Nogironlik bo'yicha pensiyalar	Boquvchisini yuqotganlik pensiyalar	Ijtimoiy nafaqa	
1.	Namangan sh.	25652	4901	4394	4060	26729	4771	4469	4368	1077	-130	75	308	1 330
2.	Kosonsoy t.	11014	2540	1189	1651	11493	2436	1143	1670	479	-104	-46	19	348
3.	Mingbuloq t.	7282	1205	604	751	7450	1186	575	787	168	-19	-29	36	156
4.	Namangan t.	13638	1817	1208	1487	13867	1805	1193	1560	229	-12	-15	73	275
5.	Norin t.	11213	1475	788	949	11593	1474	785	1013	380	-1	-3	64	440
6.	Pop t.	13676	2813	1139	1527	13977	2709	1106	1608	301	-104	-33	81	245
7.	To'raqo'rg'on t.	13932	2376	1007	1551	14486	2422	977	1625	554	46	-30	74	644
8.	Uychi t.	14279	2376	1033	1528	14801	2337	1024	1598	522	-39	-9	70	544
9.	Uchqo'rg'on t.	11796	1518	861	918	12426	1500	822	985	630	-18	-39	67	640
10.	Chortoq t.	11684	2360	860	1490	12032	2349	857	1590	348	-11	-3	100	434
11.	Chust t.	16653	3239	1463	1848	17357	3170	1430	1950	704	-69	-33	102	704
12.	Yangiqo'rg'on t.	12865	2430	828	1633	13398	2418	810	1721	533	-12	-18	88	591
	<b>Jami</b>	163684	29050	15374	19393	169609	28577	15191	20475	5925	-473	-183	1082	6351

<sup>33</sup> Namangan viloyati Pensiya jamg'armasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Namangan viloyatining tuman (shahar) Pensiya jamg'armasi bo'limlari bo'yicha 2016 yil 1 yanvar va 2017 yil 1 yanvar holatiga pensiya va ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonining harakati to'g'risida tahliliy ma'lumotni ko'rib chiqadigan bo'lsak, 2016 yil yanvar holatiga Yoshga doir pensiya oluvchilar 163684 nafarni tashkil qilmoqda, Pop tumanida esa 13676 nafarni tashkil qilmoqda. Nogironlik pensiyalarini oluvchilar 2950 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, Pop tumanida esa 2813 nafarni tashkil qilmoqda. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini oluvchilar 15374 nafarni tashkil qilmoqda, Pop tumanida esa 1139 nafarni tashkil qilmoqda.

2017 yil 1 yanvar holatiga yoshga doir pensiya oluvchilar 169609 nafarni tashkil qilgan bo'lsa Pop tumanida esa 13977 nafarni tashkil qilmoqda. Nogironlik pensiyasini oluvchilar viloyat bo'yicha 28577 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, Pop tumanida esa 2709 nafarni tashkil qilmoqda. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini oluvchilar viloyat bo'yicha 15191 nafarni tashkil qilgan bo'lsa, Pop tumanida esa 1106 nafarni tashkil qilmoqda.

Pensiyalarning turlari bo'yicha yillar orasidagi farqni ko'radigan bo'lsak, 2017 yilda yoshga doir pensiya 2016 yilga nisbatan viloyatda 5925 nafarga ko'paygan, Pop tumanida esa 301 nafarga oshgan. Nogironlik pensiyalarini oluvchilar viloyat bo'yicha 473 nafarga kamaygan, Pop tumanida esa 104 nafarga kamayganini ko'rishimiz mumkin. Nogironlik pensiyalarini oluvchilar viloyat bo'yicha 183 nafarga kamaygan, Pop tumanida esa 33 nafarga kamayganini ko'rishimiz mumkin.

## **2-bob bo'yicha xulosa**

Pensiya ta'minoti moliyaviy manbalari va ularni samarali ishlatilashini ta'minlash maqsadida, pensiya va nafaqalar tayinlanishi va to'lanishi jarayonlarini takomillashtirish asosida Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini oshirish, respublikamizda pensioner va nogironlarni manzilli himoya qilish, shuningdek, bu qatlam vakillariga qaratilgan ijtimoiy xizmat turlarini kengaytirish

va sifatini oshirish, pensiya va nafaqalarni tayinlashda, inson omilining salbiy rolini cheklash byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi o'z oldiga qo'ygan ustuvor vazifalar sanaladi.

Pensiya ta'minoti tizimi isloh qilinishining asosiy sababi ham fuqarolarning pensiya ta'minotiga oid majburiyatlarni bajarish uchun davlatda moliyaviy resurslar etishmasligidir. Respublikamizda pensiya tizimi borasidagi muammolar va isloh etishning ob'ektiv zarurati byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining taraqqiy ettirishda jahon tajribasini chuqur tahlil etishni, mamlakatda demografik vaziyatning o'zgarib borishini, pensiya ta'minoti tizimini pensiya va nafaqalarni tayinlanishi va to'lanishi jarayonlarida inson omilini rolini cheklash va pensiya ta'minotini modernizatsiyalashni shart qilib qo'ydi.

Pensiya tizimini takomillashtirish pensiya va nafaqalarni tayinlanishi, to'lanishi hamda qayta hisoblanishi va imtiyozlarni to'g'ri qo'llanishi bilan uzviy bog'liq muammo hisoblanadi. Ushbu muammoni mamlakatdagi demografik vaziyat, ishsizlik, mamlakat aholisi tabiiy o'sishi va o'rtacha yashash yoshining ortishi bilan bog'liq bo'lgan masalalardan ajratib hal etib bo'lmaydi. Shuningdek, ishlayotganlar sonining qisqarishi, davlat byudjetida aholini ijtimoiy himoya xarajatlarining ortishi, aholining mehnatga qobiliyatli qismiga tushadigan og'irlikning ko'payishi, bozor iqtisodiyotiga o'tgan mamlakatlarda pensiya jamg'armasi mablag'lari shakllanishi aksariyat qismining ish beruvchilar tomonidan to'lanishi, iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi jarayonida ishlovchilar ish haqi darajasining ortishi va mutanosib ravishda, qarilikni sug'urtalashdagi ulushining ortib borishi joriy pensiya to'lovlarida uzilish holatlarini vujudga keltirmasligi uchun amaldagi pensiya ta'minotini moliyalashtirishning isloh etilishini taqozo etmoqda.

### **3-BOB. O'ZBEKISTONDA DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

#### **3.1. Rivojlangan davlatlarning pensiya ta'minoti sohasidagi ilg'or tajribalarini O'zbekistonda qo'llash istiqbollari**

Taraqqiy etgan davlatlarda XX asrning 90-yillarida pensiya tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bunda asosiy e'tibor amaldagi taqsimlanuvchi pensiya ta'minotini takomillashtirishga, majburiy jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini asta-sekinlik bilan bosqichma-bosqich joriy etishga qaratildi.

Dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida taqsimlanuvchi va jamg'ariladigan pensiya tizimlariga asoslangan ko'p pog'onali tizim amal qilmoqda. Qator mamlakatlarda taqsimlanuvchi pensiya tizimi takomillashtirilib, unga shartli – jamg'ariladigan schyotlar kiritildi. Shu yo'l bilan fuqaro tomonidan o'tkazilgan pensiya badali va to'lanadigan pensiya miqdori o'rtasidagi uzviy aloqadorlik ta'minlandi<sup>34</sup>.

Pensiya tizimi islohoti pensiya ta'minotidagi ikki asosiy tamoyilga, bir-birini to'ldirib boruvchi qayta taqsimlash va jamg'arish tizimlariga tayanadi.

Ushbu ikki pensiya tizimining farqi shundaki, pensiya to'lovlari moliyalashtirilishidagi yondashuv hisoblanadi. Agar jamg'arish tizimida pensiya faqat sug'urta badallari hisobiga to'lansa, qayta taqsimlash tizimida joriy davrdagi ishchilarning badallari hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, aholi differentsiyatsiyasi va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida uch darajali pensiya tizimini joriy etish eng muqobil echim hisoblanadi.

Agar davlat birinchi va ikkichi bosqichda, ularni tashkil etish shartlari, pensiya ta'minoti hajmini belgilashda ishtirok etsa, uchinchi bosqichda davlat

---

<sup>34</sup> Abdullaev Z. A. Xorijiy davlatlarda pensiya ta'minoti tizimini isloh etish muammolari. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. Toshkent. 2014. 21 noyabr -13-b.

to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etmaydi, biroq shartnoma va huquqiy majburiyatlar bajarilishida kuzatuvchi vazifasini o'taydi.

7-jadval

### Uch darajali pensiya tizimining afzallik tomonlari tahlili<sup>35</sup>

Uch darajali pensiya tizimining afzalliklar		
Birinchi daraja	Ikkinchi daraja	Uchinchi daraja
<p>pensiya tizimidagi vazifasiga ko'ra ijtimoiy ahamiyatga ega. Ushbu daraja mehnatga qobiliyatsiz aholi qatlamini ijtimoiy himoyasini ta'minlovchi pensiya hajmini kafolatlaydi. Bu darajada davlat tomonidan ish staji, sug'urta staji va pensionerlarning sug'urta hisobidagi jamg'arma hajmidan qat'iy nazar minimal pensiyani belgilaydi. Bu daraja ijtimoiy xarakterga ega.</p>	<p>pensionerlarning sug'urta ajratmalari va mehnat faoliyati bilan bog'liq. Ushbu darajaning asosiy maqsadi pensionerlarni oldingi, mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan davrdagi moliyaviy sharoitini saqlab qolish. Bu daraja faol ishlovchi fuqaro uchun mo'ljallangan bo'lib, uni yuqori to'lanadigan ish joyida ishlashga, pensiya yoshida foydalanish uchun daromadining bir qismini jamg'arishga rag'batlantiradi. Funksiyasi va vazifalariga ko'ra ushbu daraja uchta bosqich ichida eng asosiysi hisoblanib, u pensionerga yuqori turmush darajasini ta'minlashga qaratilgan.</p>	<p>ishchining xohish va imkoniyatidan kelib chiqqan holda, pensiya yoshiga etgach pensiya hajmini oshirishga qaratilgan bo'lib, u individual va qo'shimcha funksiyaga ega. Pensiya tizimining ushbu bosqichi davlat va nodavlat sug'urta kompaniyalari, banklar, pensiya va boshqa fondlarning ishtiroki asosida tashkillashtiriladi</p>

Pensiya ta'minotining jamg'arish tamoyillariga o'tish borasidagi dastlabki tadbirlar Lotin Amerikasi mamlakatlarida amalga oshirildi. Lotin Amerikasi mamlakatlari o'zlarining taqsimlanuvchi pensiya ta'minotini saqlab qolganlari holda, jamg'arib boriladigan pensiya tizimini ko'p pog'onali pensiya tizimini joriy qilish maqsadida qo'llashdi. Bunday davlatlar sifatida Argentina, Kolumbiya, Peru va Urugvayni ko'rsatish mumkin.

<sup>35</sup>Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. – Toshkent, 2010.- № 4., 21-27 b.



Taraqqiy etgan mamlakatlarda aholining barcha qatlamlarini to'liq qamrab olgan universal taqsimlanuvchi pensiya tizimi mavjud. Bundan tashqari, xususiy sektorda shaxsiy sug'urtaga asoslangan ixtiyoriy pensiya ta'minoti mavjud.

Islohotlarning dastlabki bosqichida AQSh, Germaniya, Yaponiya va Italiyada pensiya tizimining daromadlarini oshirish maqsadida pensiya badallarini oshirishga harakat qilishdi. Bu esa, ishlovchilar va tadbirkorlarning qattiq noroziligiga sabab bo'ldi.

Muvaffaqiyatli pensiya ta'minoti islohotlari Buyuk Britaniya va Shvetsiyada amalga oshirildi. Ushbu ikkala mamlakat o'zlarining pensiya tizimlarining sezilarli qismini jamg'arilish tamoyillari asosida qayta tashkil qildilar.

Buyuk Britaniyada ikki pog'onali pensiya tizimi shakllantirildi. Birinchi pog'ona – pensionerga minimal daromad olishni ta'minlaydigan, umumiy soliq tushumlari hisobidan moliyalashtiriladigan majburiy davlat sug'urta ta'minoti. Ikkinchi pog'ona – ishlovchining ish haqiga bog'liq bo'lgan pensiya ta'minoti. Bu erda ikkinchi pog'onadagi davlat jamg'aradigan tizimi yoki xususiy jamg'ariladigan pensiya tizimida ishtirok etishni har bir ishlovchi xodimning o'zi tanlaydi.

Shunisi xarakterliki, Buyuk Britaniyada ishlovchilarning xususiy jamg'ariladigan pensiya tizimida ishtirok etishi davlat tomonidan turli soliq imtiyozlari qo'llash orqali rag'batlantiriladi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, ishlovchilarning qariyb 50% xususiy jamg'ariladigan pensiya tizimida ishtirok etadi. Buning natijasida davlatning pensiya bo'yicha majburiyatlari 30 foizdan ortiqqa qisqardi. Buyuk Britaniya pensiya bozori Yevropadagi eng katta bozor bo'lib, jami pensiya jamg'armalarining 40 foiziga ega. Pensiya fondi pension sxemalarni ishlab chiqadi, badallar va to'lovlarning hisobini olib boradi, o'zining kelgusida majburiyatlari bo'yicha hisoblashishni tashkil qiladi, boshqaruvchi kompaniyaga mablag'larni qaytarish bo'yicha shartlar qo'yadi. Pensiya fondining o'zi investitsiyalash bilan shug'ullanmaydi, balki shartnoma asosida boshqaruvchi kompaniya shug'ullanadi.

Shvetsiyada ishlovchilar va ish beruvchilarning pensiya badallari ish haqiga nisbatan 18,5 foizni tashkil qiladi. Ushbu ajratma ikki qismga ajratiladi:

1. Uning 16,5% joriy yilda taqsimlanuvchi pensiya tizimi asosida to'lanadigan pensiyalarni moliyalashtirishga sarflanadi. Bunda individual jamg'arma schyotlari ochiladi va unda ishlovchining pensiya badallari aks etadi. Ammo ushbu mablag'lar kapitalizatsiya qilinmaydi va shaxsning mulkiga aylanmaydi.

2. Badallarning qolgan 2 % maxsus shaxsiy jamg'arma hisob raqamiga o'tkaziladi. Ushbu hisob raqamda mablag'lar sug'urtalangan shaxsning tanloviga ko'ra xususiy fondlardan biriga yoki davlat boshqaruvida bo'lgan fondga berilishi mumkin. Xodim pensiyaga chiqishi bilan kapitalashgan jamg'armasi qaytarib beriladi. Amalda Shvetsiyada taqsimlanuvchi pensiya tizimi aralash taqsimlanuvchi-jamg'ariluvchi pensiya tizimi bilan almashtirilgan.

Germaniyada taqsimot pensiya tizimi 1891 yilda joriy qilingan bo'lib, o'sha davrdan hozirgacha uning turli ko'rinishlari Yevropa mamlakatlarida, Vengriyada davlatlarida qo'llanilmoqda. Germaniyaning pensiya tizimidagi taqsimot-tortiluvchi modeli sxemasiga ko'ra aholining iqtisodiy faol qatlami tomonidan to'langan majburiy pensiya badallari hisobidan pensiya xarajatlari shakllanadi va aholining iqtisodiy faol qatlamlari o'rtasida taqsimlanadi. Boshqacha qilib aytganda, joriy pensiya xarajatlari joriy daromadlar xisobidan qoplanadi. Ushbu tizim avlodlar birdamligi asosida qurilgan. Bir avlod ichida esa, daromadlar aholining alohida ijtimoiy guruhlari o'rtasida tabaqalandi. Germaniyada to'lov intizomini rag'batlantiruvchi ball tizimi taqsimot modelini to'ldiradi<sup>36</sup>.

Pensiya ta'minotining ikki bazaviy modeli taqsimot-tortiluvchi va kapitallashgan modellaridir. Mashhur venger iqtisodchisi Ya. Kornai taqsimot va kapitallashgan pensiya tizimlari o'rtasidagi farqlar mohiyatini asoslab berdi. Ular o'rtasidagi farqqisman moliyalashtirish texnikasida yuzaga chiqadi. Taqsimot modeli pensionerlarni hozirgi vaqtda amalda bo'lgan aholining iqtisodiy faol

---

<sup>36</sup> Abdullaev Z. A. Xorijiy davlatlarda pensiya ta'minoti tizimini isloh etish muammolari. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. Toshkent. 2014. 21 noyabr -13-b.

qatlami hisobiga ta'minlaydi. Pensiya tizimining kapitallashgan modeli taqsimotdan farqli ravishda insonning o'z mehnati va pensiya jamg'arilishi natijalari bilan uzviy bog'liq.

Chili modeli-kapitallashgan modeli erkin bozor islohotlari doirasida Chili mutaxassisleri tomonidan ishlab chiqildi. 1981 yilda e'lon qilingan farmonga ko'ra, shu kundan boshlab mehnat munosabatlarida ishtirok etgan har bir kishi uchun davlat pensiya ta'minoti bekor qilindi, bir vaqtning o'zida ular xususiy pensiya fondlarining mijoziga aylandi.

Kapitallashgan model sxemasi quyidagicha: pensiya badallarini investitsiya qilishdan va to'plashdan xosil bo'lgan kapital pensiya xarajatlarini qoplashga yo'naltiriladi. Pensiya badallari kapital to'lovchining shaxsiy hisobraqamida hisobga olib boriladi. Ushbu hisobraqamni pensiya fondlari yoki pensiya kassalari, sug'urta kassalari yoki banklar yuritadi. Pensiya mablag'larini tizimli investitsiya qilish bilan ushbu institutlar investitsiya daromadlariga ega bo'ladi. Kapital yoki yig'ilgan pensiya badallari summasi ularni investitsiya qilishdan olingan daromadpensiya fondi faoliyati xarajatlari, natijasida kapitallashgan pensiyaning moliyaviy manbasidir. Avlodlar birdamligi asosida qurilgan taqsimot modelidan farqli ravishda kapitallashgan model sug'urta tamoyiliga asoslanadi. Kapitallashgan model «Chili modeli» nomi bilan xalqaro miqyosda mashhur.

Kapitallashgan pensiya modeli davlat pensiyasiga qaraganda o'rtacha 30 foizga yuqori bo'lgan pensiya miqdorini ta'minlaydi.

Yevropa mamlakatlarida xususiy fondlar pensiya fondlarining mablag'larini boshqaruvchi kompaniyalar raqobat asosida boshqarish huquqini qo'lga kiritadilar. Bu esa, pensiya fondlari mablag'larini to'lovga qobillik darajasi yuqori bo'lgan kompaniyalar ixtiyoriga berish imkonini yuzaga keltiradi. Boshqaruvchi kompaniyalar mablag'larni ishonchli va daromadli investitsiyalash ob'ektlariga yo'naltiradilar. Pensiya fondlarining mablag'laridan samarali foydalanishlari uchun boshqaruvchi kompaniyalar o'zlarining moliyaviy mablag'lari va mulklari bilan javob beradilar.

Yevropaning taraqqiy etgan mamlakatlarida Pensiya fondlarining aktivlari katta miqdorda bo'lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan yuqori salmoqni egallaydi. Bu esa, ularda pensiya fondlari faoliyatining yaxshi yo'lga qo'yilganligidan dalolat beradi<sup>37</sup>.

Buyuk Britaniya va Gollandiyada pensiya fondlarining katta miqdorda aktivlarga ega ekanligi ularning investitsion faoliyatini Yevropaning boshqa mamlakatlariga qaraganda samarali ekanligidan dalolat beradi. Ammo shu bilan birga ayrim Yevropa mamlakatlarida pensiya fondlarini nisbatan kichik miqdordagi aktivlarga ega ekanligi aholi sonini kamligi, xususiy pensiya sxemalariga ishlovchilarning sezilarli qismini jalb etilganligi kabi omillar bilan izohlanadi.

Jamg'ariladigan pensiya tizimiga o'tishni moliyalashtirish uchun turli mamlakatlarda quyidagi usullardan foydalanildi:

– taqsimlanuvchi pensiya tizimini qisman saqlab qolish. Chunki to'plangan ajratmalarni mavjud pensionerlarga to'lash lozim. Polsha, Vengriya, Shvetsiya, Urugvay va Rossiyada ushbu usuldan foydalanildi;

– mehnatga haq to'lash fondidan qilinadigan ajratmalar miqdorini oshirish usuli;

– boshqa manbalardan olingan daromadlarni ishlatish usuli. Masalan, Xitoyda lotoreyalarni sotishdan olingan daromaddan, Argentinada qo'shilgan qiymat solig'idan foydalaniladi;

– mahalliy byudjetlarnig profitsitidan foydalanish usuli;

– davlat mulkini xususiylashtirishdan olingan mablag'larni joriy pensiya majburiyatlarini moliyalashtirish uchun ishlatish usuli. Peru, Boliviya va Polshada ushbu usuldan foydalanildi.

Shunday qilib, taqsimlanuvchi pensiya tizimi ham, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi ham kamchiliklarga va afzalliklarga ega. Pensiya siyosati faqat bir pensiya tizimiga asoslanib qolmasligi kerak. Shu sababli, taraqqiy etgan

---

<sup>37</sup> <https://www.sciencedirect.com/> Inese Mavlutova Stanislava Titova Andris Fomins. Pension System in Changing Economic Environment: Case of Latvia. *Procedia Economics and Finance* Volume 39, 2016, Pages 219-228. [science/article/pii/S2212567116303161](https://doi.org/10.1016/j.proecs.2016.03.011)

mamlakatlarda har ikkala tizimdan foydalanishga asoslangan uch pog'onali pensiya tizimi shakllandi:

- majburiy davlat pensiya tizimi. Ushbu tizimning mavjudligi pensionerlar o'rtasida qashshoqlikni oldini olish va qisqartirish imkonini beradi;

- majburiy jamg'ariladigan pensiya tizimi. Ushbu tizimda pensiya miqdori pensionerlarning individual schyotlarida to'plangan mablag'larga va investitsion daromadlarga bog'liq bo'ladi. Mazkur tizim davlat tomonidan markazlashgan tarzda boshqarilishi mumkin yoki xususiy kompaniyalar, fondlar tomonidan boshqariladi;

- ixtiyoriy xususiy pensiyaviy sug'urtalash.

Ko'p pog'onali pensiya tizimi ko'pchilik risklardan sug'urtalanish imkonini beradi.

XX asrning oxirgi choragi va XXI asrning dastlabki o'n yilligida jahondagi mavjud pensiya tizimlari, ularni tubdan isloh qilish zarurati natijasida bir qancha jiddiy muammolar yuzaga keldi. Pensiya tizimlarini isloh qilish, davlatning jami ijtimoiy siyosatini o'zgartirish bilan birgalikda olib borildi. Islohotlar jarayonida jahon jamoatchiligining asosiy vazifasi, avlodlar hamjixatligi tamoyili asosiga qurilgan pensiya ta'minoti institutini saqlab qolishdan iborat bo'ldi.

Pensiya ta'minotiga ijtimoiy xarajatlarning ko'payishi, birinchi navbatda, jamiyatda aholi yosh tarkibining jiddiy o'zgarishlari — aholining keksayishi (qariyalar ulushining ortishi) bilan bog'liq, bu jarayon 2025-2030 yillarda eng yuqori darajaga etadi. Aholining keksayishi — xozirgi davlatlarda demografik tarkib o'zgarishchlaridagi asosiy omillardan biri bo'lib, bu axolining umumiy sonida qariyalar salmog'ining ortishi bilan tavsiflanadi<sup>38</sup>.

Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrda rivojlangan mamlakatlarning barchasida nasl qoldirish qobiliyati koeffitsienti, ya'ni tug'ish yoshi koeffitsienti pasaygan. Bundan tashqari, ancha keksa yoshdagi nafaqaxo'rlarning umr ko'rishi

---

<sup>38</sup> Abdullaev Z. A. Xorijiy davlatlarda pensiya ta'minoti tizimini isloh etish muammolari. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. Toshkent. 2014. 21 noyabr -13-b.

uzayib bormokda. Ko'rib o'tilayotgan mamlakatlarda qariyalar hissasi o'sgani holda, ish bilan band bo'lganlar salmog'i qisqarib bormoqda. Bu esa, pensiya jamg'armalariga sug'urta badallari undiriladigan soliq bazasining qisqarishiga olib kelmoqda.

Qarilik buyicha pensiya xarajatlarining kupayish birinchidan, pensiyaga muddatidan oldin chiqish huquqiga ega bo'lgan shaxslar sonining, shu jumladan, ishsizlar xisobiga (mehnat bozorini maqbullashtirish) kengayishi bilan izohlanadi.

Pensiya yoshiga etmasdan nafaqaga chiqqanlar xissasi jami nafaqaxo'rlar sonining 20 dan 50 foizgacha bo'lgan miqdorini tashkil etadi.

Ikkinchidan, narxlar o'sishiga qarab, pensiyalarni indeksatsiyalash natijasida pensiyalar miqdorining o'sishi hamda 80 yoshga etgan shaxslar pensiyalari miqdorining oshirilishi xarajatlarni ko'paytirdi (rivojlangan mamlakatlarda 80 yoshdan oshganlar jami pensionerlar sonining 25-30 foizini tashkil etadi).

Uchinchidan, o'rtacha umr ko'rishning uzayishi natijasida, pensiya olish muddatlari davomiyligiga ortdi (rivojlangan mamlakatlarda bu muddatlar erkaklar uchun 14-16 yilgacha, ayollar uchun — 20 yilgacha boradi).

Pensiya tizimlarini isloh qilishni uch variantga bo'lishi mumkin: birinchidan, taqsimot tizimining ayrim parametrlarini isloh qilish; ikkinchidan, majburiy jamg'arib boriladigan tizimga o'tish; uchinchidan, bosqichma-bosqich taqsimot va jamg'arma unsurlarini o'zida mujassam etgan ko'p darajali tizimga o'tish.

Jaxondagi rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimlarini isloh qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar, umuman olganda, extiyotkorlik bilan asta-sekin, muhim tarkibiy o'zgartirish o'rniga, ko'prok parametrik tuzatishlar ko'rinishida o'tkazilmoqda. Ammo shunga qaramay, uni o'tkazishda muayyan qiyinchiliklar ham uchramoqda. Masalan, pensiya yoshini ko'tarish va qariyalar mehnat faoliyatini rag'batlantirish ishsizlik darajasi past bo'lganidagina ma'noga ega bo'ladi, ayni paytda jamg'arib borish tamoyillarini joriy etish faqat pensiya jamg'armalari oqilona investitsiya qilingandagina foyda keltirishi mumkin (masalan, bu mablag'lar davlat qarzi yoki byudjet defitsitiga emas, ishlab chiqarish investitsiyalarini moliyalashga yo'naltirilganda). Fapb mamlakatlarida pensiya

tizimlarini isloh qilishdagi extiyotkorlik va tadrijiylikning sababi shundaki, bu sohadagi xar qanday qat'iy xarakterlar jamoatchilik tomonidan ma'qullanmasligi mumkin, chunki islohotlar pensiya sug'urtasining ijtimoiy xajmidagi va ijtimoiy adolat kabi tub tamoyillarini qayta ko'rib chiqishga olib keladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, pensiya tizimini takomillashtirish mehnatga haq to'lash, soliq tizimi, mehnat bozorining holati va moliya bozori bilan uzviy bog'liq muammo hisoblanadi. Ushbu muammoni mamlaktdagi demografik vaziyat, ishsizlik, mamlakat aholisi tabiiy o'sishi va o'rtacha yashash yoshining ortishi bilan bog'liq bo'lgan masalalardan ajratib hal etib bo'lmaydi.

### **3.2. Mamlakatimizda milliy pensiya tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari**

Respublikamiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab ijtimoiy ta'minot tizimini ishlab chiqishga kirishildi, ijtimoiy himoya davlatimizning ichki siyosatining asosiy tamoyillaridan biri qilib belgilandi, chunki bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tib borar ekanmiz, aholini kam ta'minlangan, muhtoj qatlamini ijtimoiy himoyalash va kafolatlash zarur.

Pensiya jamg'armasi byudjetining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun pensiya tizimini moliyalashtirish borasida quyidagi muammolarni hal etish lozim:

- bog'liqlik koeffitsienti pastligi. Ijtimoiy xavfsizlik talablaridan kelib chiqqan holda bog'liqlik koeffitsienti 40 foizdan kam bo'lishi kerak emas, aks holda minimal yashash darajasi kafolatlanmaydi.

- aholi tarkibida nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarining yuqoriligi. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda aholi tarkibida nogironlar ulushi yuqori bo'lgani uchun har beshinchi pensiya tayinlanishi nogironlarga, har o'n ikkinchi pensiya esa boquvchisini yo'qotganlik uchun tayinlanadi.

- Pensiya jamg'armasida tayinlanayotgan imtiyozli pensiya turlarini kamaytirish yoki ularni qo'shicha ijtimoiy nafaqalar tarkibiga kiritish.

O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning barchasi respublika aholisining manfaatlarini himoya qilish, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Shu jumladan, ijtimoiy siyosatni amalga oshirish ham aholining o'tish davri davomidagi ijtimoiy jihatdan himoyalanganligini ta'minlashni ko'zda tutadi<sup>39</sup>.

Fuqarolarni ijtimoiy himoyalashni kafolatlash mexanizmi mavjud bo'lgandagina, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, pensiya fondlari jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash vositasi hisoblanadi. Ijtimoiy barqarorlik esa – jamiyat va davlat ijtimoiy muassasalari barqaror faoliyat yuritishi va barcha sohalarda rivojlanishini ta'minlovchi asosiy ichki omillardan biridir.

Dunyo mamlakatlarining pensiya tizimining rivojlanish xususiyatlarini aniqlash va prognoz qilinayotgan demografik o'zgarishlarga muvofiq tarzda, shuningdek xorijiy tajribani hisobga olgan holda, pensiya tizimi samaradorligini oshirish zarur.

Pensiya fondlarining rivojlanishi va mustahkamlanishi ijtimoiy-demografik omillar - aholining o'sish sur'ati, tug'ilish va o'lim darajasi ko'rsatkichlari, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasining, shuningdek iqtisodiyotning rivojlanish darajasi bilan uzviy bog'liqdir.

Mamlakatimizda mavjud bo'lgan ijtimoiy himoya va ijtimoiy yordam tizimi pensiya va nafaqa ta'minoti, bolalarga nafaqa, yolg'iz keksalarga xizmat ko'rsatish, nogironlarni protez - ortopediya buyumlari, harakat vositalari bilan ta'minlash, shuningdek, tibbiy va mehnat reabilitatsiya klinikasi bemorlarga xizmat ko'rsatmoqda. Aholi sanatoriya, pansionatlar, dam olish uylari, bolalar lagerlari, profilaktoriyalar hamda sayohat yo'llanmalari bilan davlat tomonidan ta'minlanadi.

O'tgan davr mobaynida pensiya ta'minot sohasida ulkan o'zgarishlar va islohotlar amalga oshirildi. Hozirgi kunda mamlakatimizda davlat pensiya

---

<sup>39</sup> Abdullaev Z. A. Xorijiy davlatlarda pensiya ta'minoti tizimini isloh etish muammolari. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. Toshkent. 2014. 21 noyabr -13-b.



ta'minotining tashkiliy jihatdan ikki shakli mavjud bo'lib, ularning birinchisi fuqarolarning birdamlashgan davlat pensiya ta'minoti tizimi, ikkinchisi fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi bulib topiladi.

Fuqarolarning birdamlashgan pensiya ta'minoti byudjeti (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi) O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan (jamlangan) byudjetining bo'g'ini hisoblanib, davlatning maqsadli jamg'armalaridan biridir. Pensiyalar to'lovlari barqaror moliyalashtirilishini ta'minlashga alohida e'tibor beriladi. Respublikada amal qilayotgan qonunlar va me'yoriy xujjatlarga asosan sug'urta qilinuvchilar va xizmat ko'rsatuvchi banklarga nisbatan ular tomonidan yo'l qo'yilgan sug'urta badallarini to'lash hamda o'tkazish qoidalarini buzish holatlari uchun penya va moliyaviy jarimalar ko'rinishidagi qat'iy jazolar tizimi belgilangan. Bundan tashqari, aybdor shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortish tizimi mavjud.

«Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasidan o'z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to'liq hajmda to'lash, shuningdek, respublika fuqarolarining pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda «Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4161-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2009 yil 30 dekabrda PQ-1252-son qarori asosida faoliyat yuritilib, Pensiya jamg'armasi 2010-2015 yillarda samarali faoliyat yurita boshladi.

2010 yilga qadar jamg'armaning daromadlari xarajatlarini qoplashga etmaganligi sababli davlat byudjetidan dotatsiya, davlat mulkini xususiylashtirish,

respublika yo'l jamg'armasining o'tgan yil oxiriga va yil boshiga qoldig'i hisobidan mablag'lar yo'naltirilgan. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining xarajatlari daromadlaridan ortib ketishiga avvalambor, ko'p yillar davomida jamg'arma hisobidan maqsadga nomuvofiq ravishda pensiya va nafaqalarning moliyalashtirishi, joylarda pensiya va nafaqalarning noto'g'ri tayinlanishi sabab bo'ldi.

Ushbu farmon va qaror talablaridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi 2010 yil 1 yanvardan faoliyat yuritib bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirdi.

Qonunchilik takomillashtirilib zamon talablaridan kelib chiqib pensiya tayinlashda yoshi va ish staji bo'yicha samarasiz imtiyozlar bekor qilindi, yoshga doir pensiya tayinlash uchun kamida 5 yillik sug'urta badallari to'langan ish staji mavjud bo'lish talabi qo'yildi, o'rtacha ish haqini aniqlashda yakka tartibdagi koefaitsient joriy qilinganligi, chet elda ishlaganlarning ish stajini hisobga olish, ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolarga va bolalikdan nogironlarga nafaqalar tayinlash hamda ishlovchi pensionerlarga pensiyalar to'lash tartiblari qayta ko'rib chiqildi.

Zamon talablariga javob beraoladigan yangi PK «Pensiya» dasturi joriy qilindi va quyidagilarni amalga oshirish imkonini berdi:

- Respublikaning barcha tuman (shahar) bo'limlari o'zaro Moliya vazirligining korparativtarmog'iga ulandi;
- Respublika bo'yicha jami uch millionga yaqin pensiya oluvchilarning yagona unifikatsiyalashgan bazasi tashkil etildi;
- pensionerlarning ma'lumotlarini konfidetsialligi ta'minlanib, ish samaradorligining oshishi;
- pensiyalarni tayinlash va to'lashda ta'magirlik holatlarni oldini olish va ishdagi xatolarni operativ tarzda aniqlash imkoniyati;
- davlat pensiya va nafaqalarini tayinlash va qayta hisoblashda kunlik daromad va xarajatlar balansi;
- markazlashgan holda o'rnatilgan administrativ nazorat hamda jamg'arma xarajatlarning operativ hisobi;

- dastur funktsionallarini yanada kengaytirish imkoniyati mavjud bo'lgan - zamonaviy informatsion mahsulotligi.

Pensiya ishlarini yangi PK «Pensiya» dasturiga migratsiyasi jarayonida 30 mingdan ortiq xato-kamchiliklar aniqladi va natijada pensiyalarning noto'g'ri tayinlanishini oldi olinib, yuqoridagi kamchiliklar to'liq bartaraf etildi.

Nogironlarni tibbiy - mehnat ekspert komissiyasi ko'rigidan qayta o'tkazish natijasida jamg'arma mablag'larining noto'g'ri sarflanishi oldi olinib, nogironlar soni pasayish tendentsiyasiga ega bo'lgan.

Respublikamizda pensiya ta'minotining rivojlanish bosqichlarini tahlil etish uzoq o'tish davri, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni sog'lomlashtirish bilan bir vaqtda o'rtacha yashash yoshi davomiyligini oshirishni talab etadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda o'rtacha umr ko'rish darajasi oxirgi 20 yilda ancha uzayib, erkaklar o'rtasida 73 yoshga, ayollar o'rtasida 75 yoshga etganini inobatga olgan holda mamlakatimizda keyingi yillarda pensiya yoshini oshirish yoki erkaklar va ayollar o'rtasida yoshni tenglashtirish borasida islohatlarni amalga oshirish zarur, bu islohatlarni albatta mehnat bozori yangi ish o'rinlarini yaratish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlari tartibiga o'ta boshlashi bilan boshqa sohalar kabi pensiya ta'minoti sohasini qayta ko'rib chiqishni, chuqurroq isloh qilishni taqozo qildi.

Pensiya ta'minoti tizimini isloh qilishning asosiy sababi ushbu tizimda oxirgi yillarda vujudga kelgan iqtisodiy-huquqiy muammolardir. Buning asosiy sabablardan biri aholining o'sishi bilan bir qatorda pensiya yoshiga etgan fuqarolarning o'sib borishi, o'z navbatida pensiya tizimida pensiya tayinlash sonini ko'payib borishi bilan bog'liq. Bu pensiya jamg'armasi mablag'larining etishmovchiligiga olib keladi.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning fuqarolarning pensiya ta'minotini ham takomillashtirishda muhim omil ekanligi shubhasizdir. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tizimi

barqarorligini ta'minlash, pensionerlarning moddiy ta'minlanganlik darajasini oshirish va pensiya ta'minotini boshqarishni optimallashtirish yo'li bilan xizmatlar sifatini yaxshilash islohotlarning bosh maqsadi hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotining hozirgi davrdagi rivojlanishi davlatning ijtimoiy sohaga yo'naltirishi lozim bo'lgan xarajatlari uchun moliyaviy resurslarning o'ta chegeralanganligi bilan xarakterlanadi. Bunday vaziyatda davlatning markazlashtirilgan fond mablag'laridan, shuningdek mavjud boshqa moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanish siyosatini ishlab chiqish hamda amalga oshirish muhim hisoblanadi<sup>40</sup>.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin o'tgan yillar moboynda pensiya ta'minotini takomillashtirish, bozor munosabatlari sharoitiga moslashtirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Ammo hozirgi iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi va moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida pensiya ta'minotini yanada takomillashtirish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlashni davrning o'zi taqozo etmoqda.

O'zbekistonda pensiya ta'minoti barqarorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- fuqarolarga yoshga doir pensiyani imtiyozli shartlarda tayinlashda imtiyozlarni bosqichma-bosqich kamaytirib borish lozim. Mehnat sharoiti o'ta zararli va og'ir ishlarda ishlovchi xodimlarning ijtimoiy himoyasini ko'proq ish beruvchilar zimmasiga o'tkazib borilishishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki amaldagi qonunning 10, 11, 12 - moddalariga asosan imtiyozli shartlarda, yoshidan qat'i nazar, umumiy belgilangan yoshdan 10 yil oldin hamda umumiy belgilangan yoshdan 5 yil oldin imtiyozli yoshga doir pensiya tayinlanib, ularning belgilangan normadan ortiq ish stajlari qonunning 38-moddasiga asosan ikki hissa barobarida va bir yarim hissa barobarida oshiriladi. Ushbu holat bir vaqtning o'zida pensionerlarga ikki imtiyoz qo'llanilib kelinmoqda. Yana bu imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beruvchi xususiy sektordagi ishlab chiqarishlar

---

<sup>40</sup> В. Антропов. Европейская социальная модель и политика жесткой экономии. Мировая экономика и международные отношения, 2017, том 61, № 3; С. 45–54

va muassasalarning ko'pchiligi keyingi yillarda mehnat sharoitining zararligi to'g'risida Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmalarining xulosalari olinmagan. Bunday holatlar O'zbekistonda Pensiya jamg'armasining barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun mehnat sharoiti o'ta zararli va og'ir ishlarda ishlagan xodimlarni moddiy ta'minoti hamda sog'ligini muhofaza qilish ish beruvchilar tomonidan amalga oshirilishi, ushbu toifa kasb va lavozimlarni minimal darajada qisqartirish, fuqarolarning bandligini oshishiga olib keladi hamda pensiya tizimi barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi;

- byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan pensiya va nafaqalarning o'z vaqtida moliyalashtirilishi va uning barqarorligini ta'minlash uchun Pensiya jamg'armasiga kelib tushadigan majburiy sug'urta badallarini o'z vaqtida tushishini qattiq nazoratga olish, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, yuridik va jismoniy shaxslarga penyalarning miqdorini oshirish lozim bo'ladi;

- Qonunning 31 – moddasi talablariga asosan pensiya tayinlashda hisoblab chiqarilgan o'rtacha ish haqi eng kam ish haqining sakkiz barobari bilan chegaralanishi belgilab qo'yilgan. Lekin fuqaro ish haqining barcha qismidan sug'urta badallarini to'lagan. Shuning uchun eng kam ish haqining sakkiz barobaridan oshgan miqdorning har-bir eng kam ish haqigacha bo'lgan qismidan 1 foiz miqdorida, ortiqcha ikki barobariga 2 foiz miqdorida va hokozo ortiqcha qismiga ustama tarzida qo'shib berilishi fuqarolarning ijtimoiy himoyasini mustahkamlaydi;

- ko'pchilik fuqarolar pensiya jamg'armasining asosiy mablag'lari ishlovchilar tomonidan to'lanadigan majburiy sug'urta badallari hisobidan shakillanadi deb o'ylashadi ammo ish beruvchilar tomonidan to'lanadigan yagona ijtimoiy to'lov pensiya jamg'armasi mablag'larining katta qismini tashkil qiladi. Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda ishlovchilar tomonidan to'lanadigan majburiy sug'urta badallarini bosqichma-bosqich oshirib borish, ish beruvchilar va ishlovchilar o'rtasida tafovudning qisqarishiga, ishlovchilarning hissasi ortishiga hamda pensiya jamg'armasining barqaror rivojlanishiga olib keladi;

- Qonunning 55-moddasiga asosan nogiron uzrsiz sabablarga ko'ra belgilangan muddatda qayta ko'rikdan o'tish uchun TMEKga bormagan bo'lsa unga pensiya to'lash to'xtatib qo'yiladi, kechikib murojaat qilganda uni yana nogiron deb tan olingan taqdirda oldingi bir oydan boshlab to'lov davom ettiriladi. Ammo TMEK nogironlik belgilangan kundan boshlab bir yil muddatga ya'ni 12 oyga nogironlik muddatini belgilaydi, lekin pensiya to'lovi 13 oyni tashkil qiladi. Uzirsiz sababga ko'ra nogiron muddati o'tib qayta ko'rikdan o'tgan taqdirda TMEK belgilagan kundan pensiya to'lovini davom ettirilsa, har oyda respublika bo'yicha sezilarli darajada pensiya jamg'armasining mablag'lari tejalishiga olib keladi;

- xususiy korxonalar, fermer xo'jaliklari va dehqon xo'jaliklarida ishlovchilarning ish staji, ish haqlariga aniqlik kiritish, pensiyalarni tayinlashda muammolarni hal qilish maqsadida Moliya vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi va Soliq qo'mitasi tomonidan aniq dastur asosida har-bir ishlovchining qaysi davrda qancha sug'urta badallari to'laganligi to'g'risida shaxsiy hisobini yuritish uchun huquqiy asoslar yaratish byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larining noqonuniy sarflanishini oldini olishga xizmat qiladi. Chunki hozirgi paytda bu xo'jaliklarda mehnat shartnomasi asosida ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish, ish haqi bo'yicha buxgalteriya hujjatlarini yuritish talab darajasiga javob bermaydi.

- harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni ishlab chiqilishi va qabul qilinishi lozim. Chunki hozirda amal qilayotgan 1990 yil 28 aprelda qabul qilingan "Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi sobiq Ittifoq qonunida bir qancha zamon talablariga mos kelmaydigan imtiyozlar amal qilmoqda. Ya'ni ularning turmush o'rtoqlari ishlamasa farzandlari sakkiz yoshga to'lgunga qadar eng kam pensiyaning 50 foiz miqdorida ustama qo'shib berilishi va o'qishni davom ettirayotgan farzandlari uchun 23 yoshga qadar ustamalar qo'shib berilishi esa jamiyatda boqamandalik kayfiyatining oshishiga olib keladi;

- jamg'arib boriladigan pensiya tizimini takomillashtirish, ya'ni hozirda amal qilayotgan qonun talablari bo'yicha ishlovchilarning daromadiga ta'sir qilmagan holda jami oylik ish haqi daromadning sug'urta badallari ushlangan qismidan 1 foiz miqdorida bankdagi shaxsiy hisob varaqlariga o'tkazilib boriladi. Ushbu tizimda fuqarolarning ishtirokini kengaytirish va pensiyaga chiqqandan keyin ijtimoiy himoyasini yanada mustahkamlash hamda to'plangan mablag'larni investitsiya va kredit resurslari sifatida moliyaviy vositalarga joylashtirib jamg'arma mablag'larini oshrish uchun ishlovchilarning jami oylik ish haqi daromadlari hisobidan 3 foiz miqdorida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya tizimiga ajratmalar ajratib borish lozim;

- davlat (birdamlik) pensiya tizimi amal qilgan holda, jahon amaliyotidan kelib chiqib, kelajakda O'zbekistonga xos xususiy pensiya tizimini shakllantirish uchun hozirdan qonunchilik asoslarini yaratish lozim.

O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimi barqarorligini ta'minlash uchun qo'shimcha xususiy pensiya turlarini shakllantirishni rag'batlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuning uchun albatta bosqichma-bosqich mehnat bozorini shakllantirish, yangi ish o'rinlarini ko'paytirish, mehnatda band bo'lganlar sonini maksimal darajada ko'paytirib borish lozim.

### **3-bob bo'yicha xulosa**

Bugungi kunda aholining moddiy farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsata oladigan omillar deyarli yo'q. Aksincha, barqarorlashtiruvchi, aholining turmush darajasi o'sishi uchun shart-sharoit va ishonchli kafolatlar yaratib beruvchi omillar tobora ortib bormoqda.

O'zbekistonda pensiya ta'minoti tizimining shakllanishida O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu qonun va hukumat tomonidan qabul qilingan boshqa me'yoriy hujjatlar amal qilayotgan pensiya ta'minoti tizimining huquqiy asosini tashkil etadi. Bu qonunning mohiyati

pensionerlarning jamiyatda tutgan o'rnini, ularni bozor iqtisodiyoti sharoitida huquqiy himoyalashni, pensiya miqdorini bevosita mehnat stajining davomiyligi va ish haqi miqdoriga bog'liqligini ta'minlashdan iborat. Mazkur qonunning negizi va uning boshqa sobiq ittifoq davlatlaridan asosiy farqi pensiya hisoblash sxemasidir, ushbu sxema bo'yicha barcha turdagi pensiyalar uch qismdan iborat.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini aniqlab, ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish jarayonida mahalla fuqarolar yig'inlarining faollari tomonidan olib borilayotgan ishlar ko'lamini kengaytirish, moddiy yordamga muhtoj, ko'p bolali oilalarga e'tiborni yanada kuchaytirish lozim. Aksariyat hollarda e'tiborsizlik natijasida haqqoniy tarzda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, shaxslar chetda qolib ketayotganligi achinarli holat, albatta.

Xalqimizning farovon turmush kechirishi dalatimiz olib borayotgan adolatli siyosatning natijasidir. Prezidentimiz tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridan ishlab chiqilgan rivojlanishning besh tamoyili mustahkam dastur bo'lib xizmat qildi. Unda kuchli ijtimoiy siyosat tamoyili mustaqillik jarayonida xalqimizning ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlami manfaatlarini himoya qilish masalasini belgilab berdi.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bozor munosabatlari shakllanib kelayotgan sharoitda ijtimoiy yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasida aholi turli qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish va samarali ijtimoiy siyosat yuritish masalalari barqaror taraqqiyotimizni ta'minlash, fuqarolik jamiyatiga xos xususiyatlarni yuzaga keltirishdagi ustuvor vazifa sanaladi.

Islohotlar chuqurlashib, bozor iqtisodiyoti tomon ilgari lab borilgan sari ijtimoiy siyosatning ustivor jihatlari ham, aholini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari ham o'zgarib bormoqda. Turli bosqichlarda davlat tomonidan tartibga solish usullari va uslublarining keng vositalaridan foydalanilmoqda. Bular orasida muntazam sur'atda qayta ko'rib turilgan ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqalarning miqdoridan iborat bevosita pul to'lovlari ham, imtiyozlar, tovon to'lovlari, dotatsiyalar va subsidiyalar sifatidagi bivosita pul to'lovlari ham bor.

O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish masalalari nazariy jihatdan o'rganilib, amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar olindi.

1. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, keng ko'lamli ijtimoiy islohotlarning bosh maqsadi, avvalo, inson manfaatlarini ta'minlashga qaratildi. Respublikamizda qabul qilingan ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, aholining barcha tabaqalarini aniq tarzda qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy siyosatning ta'sirchanligini kuchaytirishga va oshirishga qaratilgan pensiya ta'minoti organlarining roli yanada oshirilmoqda.

2. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalariga iqtisodiy madad berish, fuqarolar osoyishtaligini va millatlararo totuvlikni ta'minlash, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning kafolati, pensionerlar va nogironlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimining asosiy yo'nalishi bo'lib qoladi.

3. Pensiya ta'minoti – fuqarolar belgilangan yoshiga etganida, nogironlik yuz berganda, boquvchisi yo'qolganda, davlat oldida alohida xizmatlari uchun

fuqarolarning davlat tomonidan muntazam pul daromadlari bilan ta'minlanishidir.

4. Majburiy ijtimoiy sug'urtaning eng muhim iqtisodiy funksiyasi shundaki, u mehnat resurslarini takror ishlab chiqarish uchun zarur sharoitlarni yaratadi, pensiya ta'minotida ijtimoiy siyosatning ajralmas qismi hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urta tizimi jamiyatda fuqarolarni ijtimoiy himoyalaydi, haqqoniylikni ta'minlaydi hamda mamlakatda siyosiy birdamlikni yaratadi va saqlab qoladi.

5. Respublikamizda aholi turmush darajasini ko'tarish, ijtimoiy himoyalash tizimini amalga oshirish hamda fuqarolarga pensiya tayinlash va to'lash jarayonining umumiy asoslari ishlab chiqilgan. Hozirgi sharoitda pensiya ta'minotini takomillashtirishda hal qilinishi zarur bo'lgan uslubiy va moliyaviy muammolar mavjud.

6. Pensiya ta'minoti sohasi faoliyatini texnik modernizatsiya qilish asosida, respublikamizda pensioner va nogironlarni manzilli himoya qilish, shuningdek, bu qatlam vakillariga qaratilgan ijtimoiy xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, pensiya va nafaqalarni tayinlashda, inson omilining salbiy rolini cheklash byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi o'z oldiga qo'ygan ustuvor vazifalar sanaladi.

7. Pensiya ta'minoti tizimi isloh qilinishining asosiy sababi ham fuqarolarning pensiya ta'minotiga oid majburiyatlarni bajarish uchun davlatda moliyaviy resurslar etishmasligidir. Hozirgi kunda pensiya tizimini isloh qilishning muhimligi fuqarolarning iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog'liqligi bilan belgilanadi. Respublikamizda pensiya tizimi borasidagi muammolar va isloh etishning ob'ektiv zarurati byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining taraqqiy ettirishda jahon tajribasini chuqur tahlil etishni, mamlakatda demografik vaziyatning o'zgarib borishini, pensiya ta'minoti tizimini modernizatsiyalashni shart qilib qo'ydi.

Bitiruv malakaviy ishimizda olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi.

1. Xorijiy tajribani hisobga olgan holda hamda mamlakatimizdagi mavjud demografik holatdan kelib chiqib, milliy pensiya tizimidagi yoshga doir

pensiyalarni tayinlash uchun yosh chegaralarini va imtiyozlari berishni qayta va tanqidiy ko'rib chiqish.

2. Rivojlangan mamlakatlar tajibalaridan kelib chiqqan holda, milliy pensiya tizimiga qo'shimcha korporativ, kollektiv, xususiy jamg'armalar va ijtimoiy maqsadga yo'naltirilgan byudjetdan tashqari ijtimoiy fondlarni tashkil etish. Shuningdek, imtiyozli pensiyalarni korporativ, kolektiv xususiy pensiya fondlari orqali to'lashni mexanizmlarini joriy etish.

3. Davlat statistika qo'mitasima'lumotlariga ko'ra, o'rtacha umrko'rish darajasi 73 yil hisoblandi. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib, erkaklarning pensiyaga chiqish yoshini 2 yilga oshirish ya'ni 62 yosh etib belgilash, ayollarning ham pensiyaga chiqish yoshini 2 yoshga oshirib, 57 yoshga ko'tarish maqsadga muvofiq. Xorijiy mamlakatlarda pensiya tizimi islohotlarini olib qaraydigan bo'lsak, pensiya tizimini moliyaviy barqarorligi saqlashda pensiya yoshi ko'tarilgan yoki imtiyozlar qisqartirilgan.

Mamlakatimizda amaldagi qonunlarga qo'shimcha ravishda muhim bo'lgan qonunlar, xususan, "Nodavlat ijtimoiy sug'urta to'g'risida", "Nodavlat pensiya jamg'armasi to'g'risida" qonunlar ishlab chiqilishi va joriy etilishi, muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu jarayonda pensiya jamg'armasi mablag'larining nafaqalarga ishlatilishining oldini olish uchun "Muhtoj oilalarga ijtimoiy yordam to'g'risida"gi maxsus qonun ham ishlab chiqilish, qabul qilinishi va amaliyotga tatbiq etilishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### 1. Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 16-son, 176-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi qonuni. O‘RQ-360-son. 26.12.2013.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-938-XII-son, 03.09.1993.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonuni. 702-II-son, 02.12.2014.
5. “Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 1998 yil 1 mayda tasdiqlangan yangi tahriri (616-I-son Qonun) (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
6. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi -T., O‘zbekiston 2008-yil (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
7. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi- T., O‘zbekiston 2010-yil (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Fuqarolarning pensiya ta‘minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2009-yil 30-dekabrda PF-4161-son Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PF-5270-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevralda PF-4947-son Farmoni.
11. “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-dekabr F-4760-son farmoyishi, O‘zbekiston Respublika qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 8-son, 119-modda.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tshqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2009-yil 30-dekabrdaqi PQ-1252-son Qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlar va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-1675-sonli Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasining 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlar va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-1887-sonli Qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasining 2014-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlar va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2099-sonli Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlar va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2270-sonli Qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlar va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2455-sonli Qarori.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlar va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2699-sonli Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdaqi “O‘zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlar va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-3454-sonli Qarori.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdaqi “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2847-sonli Qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholining ish bilan bandligini kengaytirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari

faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2008 yil 29 dekabrdaqi PQ-1024-son Qarori.

22. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.05.2011 yil 145-son Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 dekabrdaqi 595-son Qarori bilan tasdiqlangan "Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi Qarori.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni. 2017 yil 24 may.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrdaqi Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-5270-sonli Farmoni

## **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari:**

25. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – T.: O'zbekiston. 2014. 32 b.

26. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: O'zbekiston. 2014. 32 b.

27. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. – T.: O'zbekiston. 2016. 72 b.

28. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.

29. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

30. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

31. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.

33. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. \\  
Xalq so'zi. 2016 yil.

### **3. Darslik va o‘quv adabiyotlari:**

34. Allayarov Sh.A., Toshmuxeamedova D.A. Davlat pensiya ta'minoti. O‘zuv qo‘llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 248 b.

35. Vahobov A.V., T.Malikov. Moliya. Darslik. – T.: “Noshir” 2012.–712 b.

36. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. Auerbach Publications. USA, 2008.

37. Kasimova G.A., Botirov A.A. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta'minoti. Monografiya. «TAMADDUN». T., 2015. 118 b.

38. Po‘latov D.X., Nurmuxeamedova B.I. G‘aznachilik. Darslik. – T.: “Sano-standart”, 2014. – 272 b.

39. B.S.Mamatov. Pensiya jamg'armasi faoliyati. O'quv qo'llanma.-T.: "Barkamol fayz media", 2017,280 b.

40. Qosimova G.A. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2013. 448b.

41. Qosimova G.A., Karimova Z.X. Budjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. –T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2009. - 212 b.

42. Xaitov A., Ziyadulaev M. O'zbekistonda pensiya ta'minoti va xorijiy tajribasi. O'quv qo'llanma. –T.: "Adolat". 2009. -172 b

43. Malikov T., Jalilov P., Byudjet-soliq siyosati. Mongrafiya. T.: Akademnashr, 2011. 472 b.

44. Bayev X.I. Aholini ijtimoiy himoyalashni tashkil etish va boshqarish muammolari. Monografiya. –T.: Iqtisodiyot. 2012 y.

45. Mexmonov S., Toshmuxeimedova D. Davlat byudjetidan ijtimoiy sohani qo'llab-quvatlashning o'ziga xos xususiyatlari. Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyoti va aholi farovonligini ta'minlash: yutuqlar, tendentsiya va istiqbollari. B.A. Begalovning umumiy rahbarligi va tahriri ostida. Ilmiy-ommabop risola. – T.: IQTISOD-MOLIYA. 2016.

#### **4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar):**

46. Vaxobov A. Milliy pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlash mexanizmi va amalga oshirish dastaklari. "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy tezislari to'plami. 2017 y 14-mart. 11-16- b.

47. Davronov Sh.Z. Davlat pensiya ta'minoti tizimini barqaror rivojlanmoqda va takomillashtirilmoqda /Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari. / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. Toshkent. 2014. 21 noyabr –8-9-b.



48. Abdullaev Z. A. Xorijiy davlatlarda pensiya ta'minoti tizimini isloh etish muammolari. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari / Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. Toshkent. 2014. 21 noyabr -13-b.

49. Mamatov B.S. Pensiya jamg'armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash. "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy tezislar to'plami. 2017 y 14-mart. 72-74- b.

50. Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloh qilishning jahon tajribasi // Moliya. – Toshkent, 2010.- № 4., 21-27 b.

51. Abdullaev M. Zamonaviy pensiya tizimi va uning istiqbollari //Bozor, pul va kredit. 2013 yil. № 6, 8-b.

52. Островская Е. Трансформация социально-экономической модели Франции//Мировая экономика и международные отношения. – Москва, 2015. - №4. – С.40-49.

53. Kasimova G.A. Jamiyatda ijtimoiy siyosat asosida inson huquqlarining kafolatlanishi. Конституция Республики Узбекистан – образование и воспитание молодёжи. Материалы 4 традиционной научно-практической конференции. Ташкент. Част 4. Том 4.2015 йил. 3-4 декабрь. -С.68-72.

54. Hamdamov Sh.K. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'laridan investitsion maqsadlarda foydalanish. "O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari" mavzusidagi vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman tezislar to'plami. Toshkent. 2017-y. 155 b.

55. Sholdarov D.A., Tursunov J.P. Aholi turmush darajasini belgilash ko'rsatkichlari va ularning pensiya ta'minoti tizimidagi o'rni. "Moliya" ilmiy jurnali. 2/2017. 72-bet.

56. Tursunov J. O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimidagi islohotlar. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimining dolzarb muammolari. Vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Toshkent. 2017 yil. 24 mart -B.217.

57. В. Антропов. Европейская социальная модель и политика жесткой экономии. мировая экономика и международные отношения, 2017, том 61, № 3, с. 45–54

58. Rodrigo A.Cerda. The Chilean pension reform: A model to follow?. Journal of Policy Modeling Volume 30, Issue 3, May–June 2008, Pages 546-558.

59. <https://www.sciencedirect.com/> Inese Mavlutova Stanislava Titova Andris Fomins. Pension System in Changing Economic Environment: Case of Latvia. Procedia Economics and Finance Volume 39, 2016, Pages 219-228. [science/article/pii/S2212567116303161](https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567116303161)

### **5. Internet saytlari:**

60. [www.mf.uz](http://www.mf.uz) (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi);

61. [www.mehnat.uz](http://www.mehnat.uz) (O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy sayti);

62. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) (O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi);

63. [www.publicfinance.uz](http://www.publicfinance.uz) (O‘zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi);

64. [www.pfru.uz](http://www.pfru.uz) (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi).

65. [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org) (Jahon bankining rasmiy vebsayti)

[www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)